

O'ZDAVTEMIRYO'LNAZORAT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TEMIR YO'LLARIDA SIGNALLASHTIRISH
BO'YICHA YO'RIQNOMA**

**Toshkent
2014 yil**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO'LLARIDA YUK VA
YO'LOVCHILAR TASHISH XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH
DAVLAT INSPEKSIYASI**

"O'ZDAVTEMIRYO'LNAZORAT"

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TEMIR YO'LLARIDA SIGNALLASHTIRISH
BO'YICHA YO'RIQNOMA**

**(2012 yil 31 dekabr holatiga
qo'shimcha va o'zgartishlar bilan)**

(“O'zdavtemiryo'lnazorat” DI ning
2001 yil 31 oktyabrdan 47-son buyrug'i bilan
2002 yil 1yanvaridan kuchga kirgan)

**Toshkent
2014 yil**

UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida signallashtirish bo'yicha yo'riqnoma (keyinchalik - mazkur Yo'riqnoma) poezdlar harakati va manyovr ishlariga taaluqli buyruq va ko'rsatmalarni uzatishdagi ko'rinadigan va tovushli signallar tizimini hamda signal asbob turlarini (qaysiki ular yordamida signallar uzatiladi) belgilab beradi.

Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportining barcha bo'linmalari va xodimlari uchun majburiydir, mazkur Yo'riqnoma belgilab bergan signallar talabini bajarish esa poezdlar harakati va manyovr ishlari uzluksizligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Mazkur Yo'riqnoma "O'zdavtemiryo'lnazorat" inspeksiyasi boshlig'ining buyrug'i bilangina o'zgartirilishi mumkin.

Temir yo'llarida signallashtirishga taaluqli bo'lgan barcha yo'riqnoma va boshqa ko'rsatmalar mazkur Yo'riqnoma talablariga qat'iy mos kelishi kerak.

SIGNALLAR

1. Signallar harakat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, poezdlar harakati va manyovr ishlarini sifatli tashkil qilish uchun xizmat qiladi.

Qabul qilinishi uslubiga ko'ra signallar **ko'rinadigan** va **tovushli** signallarga bo'linadi.

KO'RINADIGAN SIGNALLAR

2. Ko'rinadigan signallar rangi, tuzilishi, joylashishi va signallar ko'rinish soni bilan namoyon bo'ladi. Svetoforlar, disklar, shitlar, fonarlar, bayroqlar, signal ko'rsatkich va signal belgilari - ko'rinuvchi signallarni uzatuvchi signal asboblari bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rinadigan signallar foydalaniladigan vaqtiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

kunduzgi, sutkaning yorug' vaqtida uzatiladigan signallar; disklar, shitlar, bayroqchalar, (strelka, yo'l to'sish, olib tashlash qurilmalari va gidravlik kolonkalarining) signal ko'rsatkichlari bunday signallarni uzatish uchun xizmat qiladi;

tunggi, sutkaning qorong'i vaqtida uzatiladigan signallar; yo'l va poezd fonarlarida, dastalardagi fonarlarda va signal ko'rsatkichlaridagi belgilangan rangdagi chiroqlar bunday signallar bo'lib xizmat qiladi.

Tunggi signallar tuman, qor bo'roni va boshqa noqulay sharoitlarda kunduzgi to'xtash signallarining ko'rinishi - 1000 m dan, tezlikni kamaytirish signali - 400 m dan, manyovr signallarini - 200 m dan kam bo'lgan holatlarda kunduzi ham qo'llaniladi;

kunu-tunggi, kuning yorug' va tunggi davrida bir xilda uzatiladigan signallar; svetoforlarning belgilangan ranglardagi chiroqlari, marshrut va boshqa yorug'lik ko'rsatkichlari, tezlik kamaytirishning doimiy diskleri, sariq rangli kvadrat shitlar (orqa tomoni yashil rangda), yuk poezdi oxirini belgilovchi nur qaytargichli qizil disklar, signal ko'rsatkichlari va belgilari shunday signallar bo'lib xizmat qiladi.

Tonellarda faqat tunggi yoki kunu-tunggi signallar qo'llaniladi.

TOVUSHLI SIGNALLAR

3. Tovush signallari turli davomiylkdagi tovushlarning soni va mosliklarida namoyon bo'ladi. Ularning ma'nosi kunu-tun bir xilda bo'ladi.

Tovush signallarni uzatish uchun lokomotiv, motorvagonli poezd, o'zi yurar maxsus harakat tarkibining hushtaklari, yo'l hushtaklari, puflanadigan surnaylar, sirenalari, gudok va petardalar xizmat qiladi.

Petardaning portlashi zudlik bilan to'xtashni talab qiladi.

2-BOB

SVETOFORLAR

4. Svetoforlar quyidagilarga bo'linadi va tasniflanadi:

kirish - poezdga peregondan stansiyaga kirishga ruxsat beradi yoki taqiqlaydi;

chiqish- poezdga stansiyadan oraliq yo'lga (peregonga) jo'nash uchun ruxsat beradi yoki taqiqlaydi;

marshrut - poezdga stansiyaning bir rayonidan boshqa rayoniga harakatlanishiga ruxsat beradi yoki taqiqlaydi;

o'tish - poezdga bir blok-uchastkadan (postlar oralig'idagi peregondan) boshqasiga o'tishga ruxsat beradi yoki taqiqlaydi;

berkitish - temir yo'llarni boshqa temir yo'llar, avtomobil yo'llari, trolleybus liniyalari, tramvay yo'llari bilan bir sathda kesishgan joylarini, ko'tariladigan ko'priklar va kuzatuvchi bilan o'tadigan uchastkalarni berkitish uchun qo'llaniladi;

to'suvchi- temir yo'l perezdlari, katta sun'iy inshootlar va ko'chki paydo bo'ladigan joylarda harakat xavfsizligi uchun xavf tug'ilganda to'xtashni talab etuvchi, shuningdek, stansiya yo'llarida vagonlarni ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlash vaqtida tarkiblarni to'sish uchun qo'llaniladi;

ogoxlantirish - asosiy svetofor (kirish, o'tish, to'suvchi va berkitish) ko'rsatmalari xaqida ogohlantiradi;

takrorlovchi - joylarda kirish, marshrut, tepalik svetoforlarining ruxsat beruvchi signallari xaqida bildirish uchun qo'llaniladi, qachonki mahalliy sharoitlarga ko'ra asosiy svetofor ko'rinishi ta'minlanmasa;

lokomotiv - poezdni peregonda bir blok-uchastkadan boshqasiga o'tishini ruxsat etuvchi yoki taqiqlovchi, shuningdek, poezd yaqinlashib kelayotgan yo'l svetofori ko'rsatmasi xaqida ogohlantirish uchun qo'llaniladi;

manyovr - manyovr ishlarini bajarishga ruxsat beruvchi yoki taqiqlovchi;

tepalik - vagonlarni tepalikdan saralashga ruxsat beruvchi yoki taqiqlovchi.

Bir svetofor bir nechta svetoforlar (kirish va chiqish, chiqish va manyovr, chiqish va marshrut va boshqalar) funksiyasini bajarishi mumkin. Semoforlar saqlanib qolgan uchastkalarda ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida poezdlar harakati va manyovr ishlari bo'yicha yo'riqnoma bilan belgilanadi.

5. Svetoforlarning linzaliligi (rasm 2.5, a) va projektorligi (rasm 2.6, v) ishlatiladi; ular mactali (rasm 2.6, a, b va g), karlik holdagilarga bo'linadi (rasm 2.6, v) va ko'prikkalarga, konsollarga o'rnatiladi.

Svetoforlarda quyidagi signal chiroqlari qo'llaniladi:

normal yonadigan, normal yonmaydigan, o'chib-yonmaydigan va o'chib-yonadigan (vaqti - vaqti bilan yonadigan va o'chadigan).

Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkaldagi o'tish svetoforlarining normal yonmaydigan signal chiroqlari, harakat tarkibining blok-uchastkaga kirib kelganida uning oldida yonadi va harakat tarkibi blok-uchastkadan chiqqanida o'chadi.

Avtoblokirovkaning o'tish svetoforlari raqam bilan, boshqa qolganlari harf bilan yoki xarf va raqam bilan belgilanadi.

6. Svetoforlardan (qaysi joyga o'rnatilganidan va ularning turidan qat'iy nazar) uzatiladigan asosiy signallarining ma'nosi quyidagicha:

bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi";

bitta sariq o'chib-yonuvchi chiroq - "To'xtashga tayyor bo'lgan holda belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi, keyingi svetofor ochiq va pasaytirilgan tezlikda o'tishga ruxsat beriladi; poezd strelkali o'tkazgichdan og'ishgan holda o'tadi, keyingi svetofor ochiq";

bitta sariq chiroq - "To'xtashga tayyor bo'lgan holda harakat qilishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor yopiq";

ikkita sariq chiroq, ulardan yuqoridagisi o'chib-yonuvchi - "Svetofordan cheklangan tezlikda o'tishga ruxsat beriladi; poezd strelkadan og'ishgan holda o'tadi, keyingi svetofor ochiq";

ikkita sariq chiroq - "Svetofordan pasaytirilgan tezlikda o'tishga va keyingi svetofor oldida to'xtashga tayyor bo'lgan holda harakatlanishga ruxsat etiladi; poezd strelkali o'tkazgich orqali og'ishgan holda o'tadi";

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi".


Sanab o'tilgan signallarning turli hil svetoforlarda qo'llanilishi mazkur Yo'riqnomaning tegishli punktlarida ko'zda tutilgan. Ushbu signallarning mazkur Yo'riqnomada ko'zda tutilmagan hollarda ularning signal ma'nolarini saqlagan holda qo'llanilish tartibi "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi (keyinchalik matnda DATK) tomonidan "O'zdavtemiryo'lnazorat" inspeksiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

KIRISH SVETOFORLARI

7. Kirish svetoforlari quyidagi signallarni uzatadi:

bitta yashil chiroq - "Poezdga stansiyaning asosiy yo'lidan belgilangan tezlikda ketib borishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq" (rasm 2.1, a);

bitta sariq o'chib-yonadigan chiroq - "Poezdga stansiyaning asosiy yo'lidan belgilangan tezlikda ketib borishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq va uni pasaytirilgan tezlikda o'tish talab qilinadi" (rasm 2.1, b);




Rasm 2.1

bitta chiroq -


"Poezdga stansiyaga asosiy yo'lidan to'xtashga tayyor holda kirib borishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) yopiq" (rasm 2.2, a);

sariq "Poezdga




Rasm 2.2, a

ikkita sariq chiroq ulardan yuqoridagisi o'chib-yonadigan - "Poezdga stansiyaga yon yo'ldan cheklangan tezlikda kirib borish mumkin; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq" (rasm 2.2, b);




Rasm 2.2, b

ikkita sariq chiroq - "Poezdga stansiyaning yon yo'liga pasaytirilgan tezlikda to'xtashga tayyor bo'lgan holda ketib borishga ruxsat beriladi; keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.2, v);



Rasm 2.2, v

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.2, g);



Rasm 2.2, g

Kirish svetoforlaridan


poezdni stansiyaga ikki yo'lli (ko'p yo'lli) peregonning yo'lidan qabul qilish uchun quyidagi signallar uzatiladi:

ikkita sariq chiroq - "Poezdga pasaytirilgan tezlik bilan keyingi chiqish (marshrut) svetofori yoki chegaraviy ustuncha to'g'risida to'xtashga tayyor holda stansiyaga kirishga ruxsat etiladi";

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi".


8. Poezdlarni krestovinasining og'ishi katta strelkali o'tkazgich bo'ylab yon yo'lga qabul qilish uchun kirish va marshrut svetoforlarida quyidagi signallar qo'llaniladi:

bitta yashil o'chib yonuvchi va bitta sariq chiroqlar va bitta yashil yonuvchi tasma - "Poezdga 80 km/soat dan oshmagan tezlikda stansiyaning yon yo'lga ketib borishi mumkin; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq va uni 80 km/soat dan oshmagan tezlikda o'tish talab etiladi" (rasm 2.3, a);





Rasm 2.3, a

ikkita sariq chiroq, ulardan yuqoridagisi o'chib yonuvchi va bitta yashil yonuvchi tasma - "Poezdga 80 km/soat dan oshmagan tezlikda stansiyaga yon yo'ldan ketib borishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq va uni pasaytirilgan tezlikda o'tish talab etiladi" (rasm 2.3, b);




Rasm 2.3, b

ikkita sariq chiroq va bitta yashil yonuvchi tasma - "Poezdga 60 km/soat dan oshmagan tezlikda stansiyaga yon yo'ldan to'xtashga tayyor holda ketib borishga ruxsat etiladi; keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.3, v).




Ayrim stansiyalarda O'zbekiston Respublikasi temir yo'llaridan texnik foydalanish Qoidalarida belgilangan tartibda chiqish va marshrut svetoforlarida **uchta sariq chiroqli signal** qo'llanilishi mumkin - "Motor vagon poezdi, yakka lokomotiv, motovoz va drezinalarga 20 km/soat dan oshmagan tezlikda yo'lining bo'sh uchastkasiga o'ta ehtiyotkorlik bilan marshrut svetoforining qizil chirog'igacha o'tishga ruxsat etiladi" (rasm 2.4, b).



TAKLIF QILUVCHI SIGNAL

9. Taklif qiluvchi signal - bitta oq-oy rangli o'chib-yonuvchi chiroq poezdga 20 km/soat dan oshmagan tezlikda qizil chiroqli (yoki o'chgan) svetofordan o'tishga va harakatni keyingi svetoforgacha (yoki chegaraviy ustunchagacha, chiqish svetofori bo'lgan yo'lga qabul qilinganda) juda xushyorlik bilan, agarda yo'lda to'siq uchrab qoladigan bo'lsa darhol to'xtatishga tayyor bo'lgan holda davom ettirishga ruxsat beriladi (rasm 2.5).



Rasm 2.5

Bu signal kirish, shuningdek marshrut va chiqish (guruh svetoforlaridan tashqari) svetoforlarida qo'llaniladi.

Chiqish svetoforining taklif qilish signali bo'yicha jo'natishga faqat avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'lli peregoning to'g'ri yo'lidan ruxsat etiladi.

CHIQISH SVETOFORLARI

10. Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalardagi chiqish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil chiroq - "Poezdga stansiyadan jo'nashga va belgilangan tezlikda ketib borishga ruxsat etiladi, oldinda ikki va undan ortiq blok-uchastka bo'sh (rasm 2.6, a);



bitta sariq chiroq - "Poezdga stansiyadan jo'nashga va to'xtatishga tayyor bo'lgan holda ketib borishga ruxsat beriladi; keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.6, b);

ikkita sariq chiroq, ularni yuqorisidagi o'chib yonadigan chiroq - "Poezdga pasaytirilgan tezlikda stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelka o'tkazgich orqali og'ishgan holda o'tadi; keyingi svetofor ochiq" (rasm 2.6, d);

ikkita sariq chiroq - "Poezdga pasaytirilgan tezlikda stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelka o'tkazgich orqali og'ishgan holda o'tadi; keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.6, e);


bitta qizil chiroq - "To'xta! Signalni o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.6, v, g).

11. Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, krestovinasining og'ishi katta strelkali o'tkazgichlardan og'ishgan holda o'tib poezdlar jo'natilganda chiqish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:




Rasm 2.6

bitta yashil o'chib yonuvchi va bitta sariq chiroqlar va bitta yashil yonuvchi tasma - "Poezdga soatiga 80 km/soat dan oshmagan tezlikda stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelkali o'tkazgichdan og'ishgan holda o'tadi; keyingi svetofor ochiq" (rasm 2.7, a);



Rasm 2.7, a

ikkita sariq chiroq va bitta yashil yonuvchi tasma - "Poezdga soatiga 60 km/soat dan oshmagan tezlikda stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelkali o'tkazgichdan og'ishgan holda o'tadi; keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.7, b).



Rasm 2.7, b


12. Yarim avtomatik blokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda chiqish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil chiroq - "Poezdga stansiyadan jo'nashga va belgilangan tezlikda ketishga ruxsat beriladi; peregon keyingi stansiyagacha (yo'l postgacha) bo'sh" (rasm 2.8, a);

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.8, b);

ikkita sariq chiroq - "Poezdga cheklangan tezlikda stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelkali o'tkazgichdan og'ishgan holda o'tadi; peregon keyingi stansiyagacha (yo'l postgacha) bo'sh" (rasm 2.9, a).

ikkita sariq chiroq, ularni yuqoridagisi o'chib yonuvchi - "Poezdga stansiyadan pasaytirilgan tezlikda jo'nashga ruxsat beriladi; poezd strelkali o'tkazgichdan og'ishgan holda o'tadi; peregon keyingi stansiyagacha (yo'l postgacha) bo'sh, keyingi stansiyaning kirish svetofori ochiq" (rasm 2.9, b).




Rasm 2.8

Rasm 2.9


13. Signalizatsiya va aloqaning mustaqil vositasi sifatida qo'llaniluvchi avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi bilan jihozlangan uchastkalarda, chiqish svetoforlari bilan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil va bitta oq-oy rangli chiroqlar - "Poezdga stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi, oldinda ikkita yoki undan ortiq blok-uchastka bo'sh" (rasm 2.10);



Rasm 2.10

bitta sariq va bitta oq-oy rangli chiroqlar - "Poezdga stansiyadan jo'nashga ruxsat beriladi, oldinda bitta blok-uchastka bo'sh" (rasm 2.11);




Rasm 2.11

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi".

14. Yo'l blokirovkasi bilan jihozlangan ayri yo'l mavjud bo'lganda, shuningdek, yo'l blokirovkasi bilan jihozlangan ko'p yo'lli uchastkalarda va ikki tomonlama blokirovka bilan

jihozlangan ikki yo'lli uchastkalarda poezd jo'natilayotgan yo'lni ko'rsatish uchun, zarur hollarda "O'zbekiston temir yo'llari" DATK belgilagan tartibda qo'shimcha marshrut ko'rsatkichlari qo'llanilishi mumkin.

Marshrut ko'rsatkichi bo'lmaganda poezdni ayri yo'lga jo'natish, yoki ko'p yo'lli uchastka yo'llarining biri bo'yicha yoki ikki tomonlama blokirovkada noto'g'ri yo'l bo'yicha jo'natishga chiqish svetoforidagi **ikki yashil chiroq** bilan signal berilishi mumkin, bu avtoblokirovkada ikkitadan kam bo'lmagan blok-uchastkaning bo'shligini, yarim avtomatik blokirovkada peregonni keyingi stansiyagacha bo'shligini bildiradi (rasm 2.12.).




Rasm 2.12

Ikki tomonlama blokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda noto'g'ri yo'l bo'yicha jo'natilishda marshrut ko'rsatkichlari yoki **ikki yashil chiroq** signalining qo'llanilishi majburiydir.

Ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri yo'ldan harakatlanish avtoblokirovkaning signallari bilan amalga oshirilganda, noto'g'ri yo'ldan harakatlanish esa lokomotiv svetoforlari bilan amalga oshirilganda, shuningdek, ikki yo'lli uchastkalarda avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi signalizatsiya va aloqaning mustaqil vositasi sifatida qo'llanilganda, stansiyadan noto'g'ri yo'ldan jo'natishda chiqish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta o'chib yonadigan sariq va bitta oq-oy rangli chiroqlar - "Poezdga soatiga 40 km/soat dan ortiq bo'lmagan tezlikda stansiyadan jo'nashga va keyinchalik lokomotiv svetoforining ko'rsatmalariga muvofiq noto'g'ri yo'ldan ketib borishga ruxsat beriladi" (rasm 2.13).



Rasm 2.13

15. Chiqish svetoforlariga ega bo'lgan stansiyalarda, yo'l blokirovkasi bilan jihozlanmagan ayri yo'l mavjud bo'lsa, ayri yo'lga jo'nash marshrutining tayyorligi chiqish svetoforida **bitta oq-oy rangli chiroq** bilan ko'rsatiladi; poezdlar ayri yo'lga mashinistga **jezl yoki oq-oy rangli chiroqda va chiqish svetoforining qizil chirog'i o'chganda yo'l xati (qog'ozi)** berilib jo'natiladi (rasm 2.14).



Rasm 2.14

MARSHRUT SVETOFORLARI

16. Marshrut svetoforlaridan, ularning o'rnatilgan joyiga bog'liq ravishda, quyidagi signallar beriladi:

bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatga ruxsat beriladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq;

bitta sariq chiroq - "To'xtashga tayyor bo'lgan holda harakatga ruxsat beriladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) yopiq";

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi";

bitta o'chib yonadigan sariq chiroq - "Belgilangan tezlikda svetofordan o'tishga ruxsat beriladi; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq va uni pasaytirilgan tezlikda o'tish talab etiladi";

ikkita sariq chiroq, ulardan yuqorisidagi o'chib yonuvchi - "Pasaytirilgan tezlikda svetofordan o'tishga ruxsat beriladi; poezd yon tomondagi yo'lga bormoqda; keyingi svetofor (marshrut yoki chiqish) ochiq";


ikkita sariq chiroq - "Svetofordan pasaytirilgan tezlikda va stansiyada to'xtashga tayyor holda o'tishga ruxsat beriladi; poezd yon yo'lga bormoqda; keyingi svetofor yopiq".

O'TISH SVETOFORLARI

17. Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda o'tish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, oldinda ikki yoki undan ortiq blok-uchastka bo'sh" (rasm 2.15);

bitta sariq chiroq - "To'xtashga tayyor bo'lgan holda harakatlanishga ruxsat beriladi, keyingi svetofor yopiq" (rasm 2.16);



Rasm 2.15

Rasm 2.16

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.17).

18. To'rt belgili signalizatsiyali avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, asosiy yo'l bo'ylab o'tish, kirish, marshrut vetoforlaridan va chiqish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:


bitta yashil chiroq - oldinda uchta yoki undan ortiq blok-uchastkalar bo'sh;

bitta sariq va bitta yashil chiroqlar - oldinda ikkita blok-uchastka bo'sh (rasm 2.18);

bitta sariq chiroq - oldinda bitta blok-uchastka bo'sh;

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi".

19. Uch belgili yoki to'rt belgili signalizatsiyali avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, kirish svetoforlarining oldida joylashgan o'tish svetoforlarida (kirish oldi) bundan tashqari quyidagi signallar qo'llanishi mumkin:




Rasm 2.17

Rasm 2.18

bitta o'chib-yonuvchi sariq chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi; kirish svetofori ochiq va uni pasaytirilgan tezlikda o'tish talab etiladi; poezd stansiyaning yon yo'liga qabul qilinadi" (rasm 2.19, a);

bitta o'chib-yonuvchi yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, kirish svetofori ochiq va uni soatiga 80 km/soat dan oshmagan tezlikda o'tish talab etiladi, poezd stansiyaning yon yo'liga qabul qilinadi" (rasm 2.19, b).

Kirish oldi svetoforining mactasiga nur qaytargichli ogohlantiruvchi jadvalchalar o'rnatiladi (rasm 2.19).




Rasm 2.19

Harakat lokomotiv svetofori signallari bo'yicha amalga oshiriladigan noto'g'ri yo'ldagi kirish oldi svetofori, uch belgili signalizatsiyali avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalardagi kirish oldi svetofori kabi signallar uzatadi.

20. Yarim avtomatik blokirovka bilan jihozlangan uchastkadagi o'tish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, peregon keyingi stansiyagacha (yo'l postigacha) bo'sh" (rasm 2.20);

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.21).




Rasm 2.20

Rasm 2.21

21. Uch belgili signalizatsiyali avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, asosiy yo'lda, talab etiluvchi tormoz yo'lidan qisqa blok-uchastkani chegaralovchi svetoforda (kirish, marshrut, chiqish yoki o'tish), ikkita vertikal holdagi nayza shaklidagi oq rangli yorug'lik ko'rsatkichi o'rnatiladi (rasm 2.16), unga ogohlantiruvchi bo'lgan svetoforda esa - shunday ko'rsatkich bitta nayza shaklida bo'ladi (rasm 2.15).

SVETOFORNING SHARTLI RUXSAT BERUVCHI SIGNALI

22. Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, uzoqqa cho'zilgan ko'tarilishda o'tish svetoforida joylashtirilgan **shaffof oq rangli "T" shaklidagi shartli ruxsat beruvchi signal** (rasm 2.22) yuk poezdiga qizil chiroqli svetofordan 20 km/soat dan ortiq bo'lmagan tezlikda va o'ta hushyorlik bilan to'xtashga tayyor bo'lgan holda o'tishga ruxsat beradi.



Rasm 2.22

BERKITUVCHI VA

TO'SUVCHI SVETOFORLAR

23. Berkitish svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi";

bitta qizil chiroq - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi".


24. To'suvchi svetoforlardan **bitta qizil chiroq** signali uzatiladi - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 2.2.3, a).

Ogohlantiruvchi svetofordan to'suvchi svetofordan oldin **bitta sariq chiroqli** signal uzatiladi - "To'xtashga tayyor holda harakatlanishga ruxsat beriladi; asosiy to'suvchi svetofor yopiq" (rasm 2.23, b).

Avtoblokirovka bilan jihozlanmagan yuqori tezlik uchastkalarida **ogohlantiruvchi svetofor to'suvchiga nisbatan**: 160 km/soat dan ortiq, lekin 220 km/soat dan oshmaydigan yurish tezliklarida – **perezddan 2500 metr masofada**, 221 km/soat dan ortiq, lekin 250 km/soat dan oshmaydigan yurish tezliklarida – **perezddan 3500 metr masofada** o'rnatiladi.

(24-bandga 3-xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyruqi'ga asosan kiritilgan).

To'suvchi va ularga ogohlantiruvchi bo'lgan svetoforlarning normal signal chiroqlari yonmagan bo'ladi (rasm 2.23, v) va shu holatda svetoforlar signal mohiyatiga ega bo'lmaydi. Bu svetoforlarning mactalari farqlanish ranglariga bo'yaladi – **og'ishtirilgan ketma-ket keluvchi qora va oq rangdagi tasmalar**.



Rasm 2.23

OGOHLANTIRUVCHI VA TAKRORLOVCHI SVETOFORLAR

25. Avtoblokirovka bilan jihozlanmagan uchastkalarda kirish, o'tish va berkitish svetoforlarining oldidagi ogohlantiruvchi svetoforlardan quyidagi signallar uzatiladi:


bitta yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi; asosiy svetofor ochiq" (rasm 2.24);

bitta sariq chiroq - "To'xtashga tayyor bo'lgan holatda harakatlanishga ruxsat beriladi; asosiy svetofor yopiq" (rasm 2.25);

bitta o'chib yonadigan sariq chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, kirish svetofori ochiq va uni pasaytirilgan tezlikda o'tish talab etiladi; poezd stansiyaning yon yo'liga qabul qiliniladi".

26. Takrorlovchi svetofor **bitta yashil chiroq** ko'rsatib, chiqish yoki marshrut svetoforining ochiqligini bildiradi (rasm 2.26).

Takrorlovchi svetoforlarning normal signal chiroqlari yonmagan bo'ldi va shu holatda svetoforlar signal mohiyatiga ega bo'lmaydi.



Rasm 2.24

Rasm 2.25

Rasm 2.26

Stansiyada to'xtagan yo'lovchi poezdlar faqat takrorlovchi svetoforda yashil chiroq yonganda harakatga keltirilishi mumkin. Agar takrorlovchi (yoki chiqish) svetoforining nosozligi sababli yashil chiroqni yoqish mumkin bo'lmasa, uni o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida poezdlar harakati va manyovr ishlari bo'yicha yo'riqnoma bilan belgilanadi.

LOKOMOTIV SVETOFORLARI

27. Avtoblokirovka va avtomatik lokomotiv signalizatsiya bilan jihozlangan uchastkalarda, lokomotiv svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

yashil chiroq - "Harakatga ruxsat beriladi; poezd yaqinlashib kelayotgan yo'l svetoforida yashil chiroq yonayapti" (rasm 2.27, a);

sariq chiroq - "Harakatga ruxsat beriladi; poezd yaqinlashib kelayotgan yo'l svetoforida bitta yoki ikkita sariq chiroq yonayapti" (rasm 2.27, b);

sariq bilan qizil chiroq birga - "To'xtashga tayyor bo'lgan holda harakatlanishga ruxsat beriladi; poezd yaqinlashib kelayotgan svetoforda qizil chiroq yonayapti" (rasm 2.27, v).


Qizil chiroqli yo'l svetoforidan o'tgan vaqtda lokomotiv svetoforida **qizil chiroq** yonadi (rasm 2.27,e);

oq chiroq - (rasm 2.27, d) lokomotiv qurilma yoqilganini ko'rsatadi, ammo yo'l svetoforining signallari lokomotiv svetoforiga uzatilmaydi va bunday holda mashinist yo'l svetoforining signallariga rioya qilishi kerak.

Lokomotiv svetofori shuningdek quyidagi signallar uzatadi:

yashil chiroq bilan - poezdni **bitta o'chib yonuvchi sariq chiroqli, bitta o'chib yonuvchi yashil chiroqli** yoki **bitta sariq va bitta yashil chiroqli** yo'l svetoforiga yaqinlashib kelayotganini ko'rsatadi.

sariq chiroq bilan - poezdni **ikkita sariq chiroqli**, ulardan yuqorisidagi **o'chib yonuvchi** hamda strelkali o'tkazgichdan og'ishib o'tishini ko'rsatuvchi boshqa chiroq ko'rsatkichli yo'l svetoforiga yaqinlashib kelayotganini ko'rsatadi.



Rasm 2.27

28. Avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi signalizatsiyaning mustaqil vositasi sifatida qo'llanilgan uchastkalarda poezdning harakat qilish davrida lokomotiv svetoforidan quyidagi signallar uzatiladi:

yashil chiroq - "Belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, oldinda ikkita yoki undan ko'p blok-uchastkalar bo'sh";

sariq chiroq - "Pasaytirilgan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, oldinda bitta blok-uchastka bo'sh";

sariq bilan qizil chiroq birga - "Blok-uchastkada to'xtashga tayyor bo'lgan holda harakatlanishga ruxsat beriladi, keyingi blok-uchastka band".


Agar poezd band bo'lgan blok-uchastkaga kirsam lokomotiv svetoforida **qizil chiroq** yonadi.

Oq chiroq lokomotiv qurilmasini yoqilganliginin, lekin yo'ldan lokomotivga signal uzatilmayotganligini ko'rsatadi.

Yo'l svetoforiga yaqinlashganda lokomotiv svetoforlaridan ushbu Yo'riqnomaning 27 bandida ko'rsatilgan signallar uzatiladi.

AMALDA BO'LMAGAN SVETOFORLARNI BELGILASH

29. Amalda bo'lmagan svetoforlar ikkita planka bilan xoch shaklida mahkamlab qo'yiladi, signal chiroqlari esa o'chirilgan bo'ladi (rasm 2.28).




Rasm 2.28

3-BOB

TO'SISH SIGNALLARI

TEZLIKNI CHEKLOVCHI DOIMIY DISKLAR

30. Sariq rangli disk bilan (rasm 3.1, a) quyidagi signal uzatiladi: "To'xtashga tayyor hamda cheklangan tezlikda va "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" (rasm 5.19) signal belgilari bilan to'silgan xavfli joyni DATK boshqaruvi raisi buyrug'ida ko'rsatilgan tezlikda o'tishga tayyor holda harakatlanishga ruxsat beriladi;



Rasm 3.1

yashil
(rasm 3.1, b) -
joydan o'tdi" signali uzatiladi. Bir yo'llik uchastkalarda mashinist bunday signalni harakatlanish yo'nalishining chap tarafida ko'radi.

rangli disk bilan
"Poezd xavfli

DATK boshqaruvi raisining buyrug'iga muvofiq tezlik doimiy cheklanadigan joylar, xavfli joyning chegarasidan 50 m masofada ikkala tarafdin "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" doimiy signal belgilari bilan to'siladi. Bu signal belgilaridan 3.1 jadvalning 3 ustunida ko'rsatilgan


"A" masofada yo'naltiruvchi pasayish va poezdlarning harakatlanish maksimal tezliklariga bog'liq ravishda, peregonda tezlikni cheklovchi doimiy signallar o'rnatiladi.

3.1 jadval

T.r.	Peregondagi yo'naltiruvchi pasayish va poezdlarning eng yuqori harakat qilish tezligi	"Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" signal ko'rsatkichlaridan tezlikni cheklash signaligacha bo'lgan "A" masofa	Ko'chma qizil signallardan va to'satdan paydo bo'lgan to'siqlardan petardalgacha bo'lgan "B" masofa
1	2	3	4
1	Yo'naltiruvchi pasayish 0,006 bo'lgan peregonlarda: yuk poezdlari tezligi 80 km/soat, yo'lovchi poezdlarining tezligi 100 km/soat dan oshmaganda	800¹	1000
	refrijerator poezdlar tezligi 100 km/soat dan ortiq lekin 120 km/soat dan oshmagan va yo'lovchi poezdlari 100 km/soat dan ortiq lekin 140 km/soat dan oshmaganda	1000	1200
	yuk poezdlari tezligi 80 km/soat dan ortiq lekin 90 km/soat dan oshmaganda	1100	1300
	yo'lovchi poezdlar tezligi 140 km/soat dan ortiq lekin 160 km/soat dan oshmagan bo'lsa	1400	1600
2	Yo'naltiruvchi pasayish 0,006 va undan ortiq lekin 0,010 dan oshmagan bo'lganda peregonlarda harakat tezligi: yuk poezdlarida 80 km/soat dan, refrijerator poezdlarida 100 km/soat dan oshmagan bo'lsa	1000	1200
	refrijerator poezdlarida 100 km/soat dan ortiq lekin 120 km/soat dan oshmagan va yo'lovchi poezdlarida 100 km/soat dan ortiq lekin 140 km/soat dan oshmagan holda	1100	1300
	yuk poezdlarida 80 km/soat dan ortiq, lekin 90 km/soat dan oshmagan bo'lsa	1300	1500
	yo'lovchi poezdlarida 140 km/soat dan ortiq lekin 160 km/soat dan oshmagan holda	1500	1700
3	Yo'naltirilgan pasayish 0,010 dan ortiq bo'lgan peregonlarda	DATK raisi tomonidan belgilanadi	

¹3.1-jadvalda va mazkur Yo'riqnomadagi barcha sxemalarda masofalar metrlarda keltirilgan.

Tezlikni doimiy ravishda cheklash uchun qo'llaniladigan disklar va "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" signallarini: bir yo'llik uchastkada o'rnatilish sxemasi 3.2., a rasmda, ikki yo'llik uchastkaning bitta yo'lida o'rnatilishi sxemasi 3.2., b rasmda, ikki yo'llik uchastkaning ikkala yo'lida o'rnatilishi sxemasi 3.2., v rasmda ko'rsatilgan.



Rasm 3.2

Yo'naltiruvchi pasayish va peregonda poezdlarning ruxsat etilgan maksimal tezliklariga bog'liq ravishda, petardalar qo'yilishi va tezlikni cheklash signallari o'rnatiladigan masofalari ko'rsatilgan peregona ro'yxati, DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

KO'CHIRILADIGAN SIGNALLAR

31. Ko'chiriladigan signallarga quyidagilar kiradi: ikki tomoni qizil rangli yoki bir tomoni qizil, boshqa tomoni oq rangdagi to'g'ri burchakli shitlar, sariq rangdagi kvadrat shitlar (orqa tomoni yashil rangda), dastaga o'rnatilgan qizil chiroqli fonar, dastadagi qizil bayroqlar.


32. Ko'chiriladigan signallarga quyidagi talablar qo'yiladi:

kunduzi **to'g'ri burchakli qizil rangli shit (yoki dastaga o'rnatilgan qizil rangli bayroqcha)**, kechasi **dastaga o'rnatilgan qizil chiroqli fonar** - "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" (rasm 3.3, a);

kvadrat shaklidagi sariq rangli shit - kunduzi va kechasi (rasm 3.3., b) xavfli joyga o'rnatilganda:


peregonda - "Cheklangan tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi, oldinda to'xtashni yoki pasaytirilgan tezlikda o'tishni talab qiluvchi xavfli joy mavjud";

stansiyaning asosiy yo'lida - "Cheklangan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi, oldinda pasaytirilgan tezlikda o'tishni talab qiluvchi xavfli joy mavjud";




Rasm 3.3, a

stansiyaning boshqa yo'llarida - "Signalni ogohlantirishda ko'rsatilgan tezlikda o'tishga, agar ogohlantirishda ko'rsatilmagan bo'lsa, uni 25 km/soat dan oshmagan tezlikda o'tishga ruxsat etiladi".



Rasm 3.3, b,v



Rasm 3.3, g,d


Kvadrat shaklidagi shitning (orqa tomoni yashil rangda) kunduzi va tunda (rasm 3.3, v) peregonda va stansiyaning asosiy yo'lida joylashganda, mashinist xavfli joyni butun tarkib bilan o'tgandan keyin tezlikni belgilangan miqdorgacha ko'tarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tezyurar va yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar harakatlanganda sariq rangli kvadrat shit (orqa tomoni yashil rangli kvadrat shit)ga yaqinlashish joylariga qo'shimcha ravishda romb shaklidagi sariq rangda ichida V harfli (romb orqa nomoni yashil rangda ichida V harfli) qo'shimcha signal belgilari (rasm 3.3, g, d) quyidagi jadvalda ko'rsatilgan yo'naltiruvchi pasayish va poezdlar harakati tezligi kattaligiga bog'liq bo'lgan B masofada (rasm 3.3, e) o'rnatiladi:

t/r	Yo'naltiruvchi pasayish	Masofa (B, m), "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri", tezlikni kamaytirish signal belgilarigacha, quyidagi tezliklarda		
		160-200 km/soat	201-220 km/soat	221-250 km/soat
1	0,006, lekin 0,010 dan ortiqmas	1800	2400	3000
2	0,030	2300	2900	3500

(32-bandga 8-xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyruqi'ga asosan kiritilgan).

Romb shaklidagi sariq rangda ichida V harfli (romb orqa nomoni yashil rangda ichida V harfli) signal belgilari o'rnatilishi sxemalari 3.3., e, yo, j rasmlarda ko'rsatilgan.



Rasm 3.3. e,yo,j

Romb shaklidagi signal belgilarni o'rnatish sxemasi


POEZDLAR HARAKATI UCHUN TO'SIQ JOYLARNI VA ISHLAR OLIB BORILAYOTGAN JOYLARNI PEREGONLARDA TO'SISH

33. Peregonda paydo bo'lgan har qanday to'siq poezdni kelish kelmasligidan qat'iy nazar to'xtash signallari bilan to'silishi kerak.

Peregonda poezdni to'xtatishni talab qiladigan ishlar olib borilayotgan joy to'siq kabi to'siladi.

Peregonda paydo bo'lgan to'siq ikkala tomondan 50 m masofada ko'chma qizil signallar bilan to'siladi. Bu signallardan 3.1 jadvalning 4 ustunida ko'rsatilgan yo'naltirilgan pasayishga va peregonda poezdlarning maksimal tezligiga bog'liq bo'lgan B masofada uchtadan petarda o'rnatiladi va ishlar olib borilayotgan joyga eng yaqin joylashgan birinchi petardadan 200 m masofada tezlikni cheklovchi ko'chma signallar o'rnatiladi. Ishlar olib borilayotgan joylarni to'sish sxemalari bir yo'llik uchastkalar uchun rasm 3.4, a da, ikki yo'llik uchastkaning bir yo'li uchun rasm 3.4, b da, ikki yo'llik uchastkaning ikkala yo'li uchun rasm 3.4, v da keltirilgan.


Tezlikni cheklovchi ko'chma signallar va petardalar, ishlar olib borilayotgan tomonga nisbatan birinchi joylashgan petardadan 20 m masofada qo'l qizil signali bilan turuvchi signalchilar tomonidan qo'riqlanishi kerak. Ko'chma qizil signallar ishlar rahbari nazorati ostida bo'lishi kerak.



Rasm 3.4, a,b

Kengaytirilgan (200 m dan ortiq) front bilan ishlar olib borilayotgan joyda, ishlar joyi 3.4., g rasmda ko'rsatilgan tartibda to'siladi.


To'silishni talab etiladigan uchastka chegarasidan 50 m masofada o'rnatilgan ko'chma qizil signallar, ularning yonida yo'l qizil signallari bilan turuvchi signalchilar tomonidan qo'riqlanishi kerak.



Rasm 3.4, v,g

Agar peregondagi to'siq joyi yoki ishlar olib borilayotgan joy stansiya yaqin bo'lsa va uni belgilangan tartibda to'sish mumkin bo'lmasa, u peregon tarafdan shu bandda ko'rsatilgan tartibda to'siladi, stansiya tarafidan esa ko'chma qizil signal kirish signalining yoki "Stansiya chegarasi" signal ko'rsatkichning qarshisiga yo'lning o'qiga o'rnatiladi, signalist tomonidan

qo'riqlanadigan uchta petarda o'rnatilishi bilan (rasm 3.5). Agar to'siq joyi yoki ishlar olib borilayotgan joy kirish signalidan (yoki "Stansiya chegarasi" signal ko'rsatkichidan) 60 m dan kamroq masofada joylashgan bo'lsa, bunday holda stansiya tarafdin petardalar o'rnatilmaydi. Kirish signalining oldidagi to'siqni to'sish sxemasi 3.5 rasmda keltirilgan.



Rasm 3.5


Poezd ko'chma sariq signalga yaqinlashganda lokomotiv (motor vagon poezdi), maxsus o'zi yurar harakat tarkibi mashinisti bitta uzun hushtak signalini uzatishi, qo'l qizil signalli signalchiga yaqinlashganda to'xtash signalini uzatishi va zudlik bilan ko'chma qizil signaldan o'tib ketmaslik uchun to'xtash choralarini ko'rishi shart.

Signalchilar temir yo'l transportining boshqa ishchi-xodimlaridan farqlanishi uchun usti sariq rangda bo'lgan bosh kiyimi va signal jileti kiyishlari shart.

Ko'p yo'lli peregonlarda poezdlar harakati uchun to'siqlar va ishlar olib borilayotgan joylar DATK belgilagan tartibda to'siladi.

34. To'satdan paydo bo'lgan to'siqni to'sish uchun kerakli ko'chma signallar bo'lmasa, zudlik bilan to'siq paydo bo'lgan joyga to'xtash signali o'rnatiladi (rasm 3.6): kunduzi - **qizil bayroqcha**, kechasi - **qizil chiroqli fonar** va to'siqni ikkala tomonida 3.1 jadvalning 4 ustunida ko'rsatilgan yo'naltiruvchi pasayish va peregonda ruxsat etilgan poezdning maksimal tezligiga bog'liq "B" masofaga **uchtadan petarda** o'rnatiladi.

Petardalar, birinchi petardadan to'siq tomonga nisbatan 20 m masofada qo'l qizil signallari bilan turuvchi temir yo'l ishchilari tomonidan qo'riqlanishi kerak.



Rasm 3.6

Signallar birinchi navbatda poezd kutilayotgan tomonga o'rnatiladi. Bir yo'lli uchastkada, poezd qaysi tomonidan kelishi ma'lum bo'lmasa, signal birinchi navbatda to'silayotgan joy


tarafiga yoʻnalgan qiyalikka, tekis maydonchada - burilish yoki oʻyilgan joy bor tomoniga oʻrnatiladi.

Toʻsatdan paydo boʻlgan toʻsiqlarni toʻsishda ishchi-xodimlarning mukammal harakatlanish tartibi DATK ning tegishli yoʻriqnomalari bilan belgilanadi.

35. Poezdlar faqat kuzatuvchi bilan oʻtishi (15 km/soat dan oshmagan tezlikda) mumkin boʻlgan joy, shuningdek, ikki yoʻllik uchastkada bir sathda yoʻllarning mavjud oʻrami, harakat uchun toʻsiqni chegaralash kabi, lekin petardalar oʻrnatilmasdan toʻsiladi. Bu signallarni oʻrnatilganligi xaqida poezdlarga yozma ogohlantirishlar beriladi.

Poezdni kuzatuvchi bilan oʻtkazish zaruriyatida, unga ogohlantirish berilmagan boʻlsa, petardalar oʻrnatilishi shart.

Poezdlarni kuzatuvchilar bilan oʻtkazish davomiy muddatga belgilanadigan boʻlsa, qizil koʻchma signallarni yopiq holda qoldiriluvchi berkitish svetoforlari bilan almashtirish mumkin, ularning oldida ogohlantiruvchi svetofor oʻrnatilishi bilan (rasm 3.7).



Rasm 3.7

Bunday berkitish svetoforlarini oʻrnatish xaqida "Oʻzdavtemiryoʻlnazorat" inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, DATK boshqaruvi raisining buyrugʻi bilan eʼlon qiliniladi, bunday hollarda poezdlarga ogohlantirishlar berilmaydi.


Toʻsilgan joyning ikkala tomonida yoʻl postlari ochilganda, bu postlar oraliqida poezdlar harakati kuzatuvchisiz qoʻllaniladigan aloqa va signalizatsiyaning maʼlum bir turi boʻyicha amalga oshiriladi.

Ayrim hollarda toʻsilgan joydan poezdning belgilangan tezlikda harakat qilishini kuzatish uchun kuzatuvchi ham tayinlanishi mumkin.

36. Hamma holatlarda petardalar uchtadan oʻrnatiladi: ikkitasi poezdning harakatlanish yoʻnalishi boʻyicha oʻng tomondagi relsga va bittasi chap tomondagi relsga oʻrnatiladi (rasm 3.6). Petardalar orasidagi masofa 20 m dan boʻlishi kerak.

37. Tezlikni cheklovchi koʻchma signallar hamda "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" signal belgilari 3.2 rasmda koʻrsatilgan sxemalar boʻyicha oʻrnatiladi.

Agar, peregondagi tezlikni pasaytirishni talab qiluvchi joy stansiya yaqinida joylashgan boʻlsa va uni belgilangan tartibda toʻsish mumkin boʻlmasa, toʻsiq peregondan ushbu bandda belgilangan tartibda toʻsiladi, stansiya tarafdin esa 3.8 rasmda koʻrsatilgan tartibda toʻsiladi.




Rasm 3.8

Ko'chma sariq signalga yaqinlashganda mashinist lokomotiv (motor vagon poezdi), maxsus o'zi yurar harakat tarkibidan bitta uzun hushtak signalini berishi shart va poezdni shunday harakatlantirishi kerakki, "Xavfli joy boshi" (rasm 3.9, a) va "Xavfli joy oxiri" (rasm 3.9, b) ko'chma signal belgilari bilan to'silgan joyni ogohlantirishda ko'rsatilgan tezlikda, ogohlantirish bo'lmasa - 25 km/soat dan oshmagan tezlikda o'tsin.

"Xavfli joy oxiri" signal belgisi "Xavfli joy boshi" signal belgisining orqa tomoniga o'rnatiladi.


Tezlikni cheklovchi ko'chma signal belgilari hamda "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" signal belgilari stansiyalarning yo'llarida va ko'p yo'lli peregonlarda kaltalashtirilgan dastaga o'rnatilgan holda qo'llaniladi.



Rasm 3.9

38. To'xtash yoki tezlikni cheklash signallari bilan chegaralashni talab qilmaydigan, lekin ishlayotganlarni poezd yaqinlashayotgani xaqida ogohlantirish talab etiladigan ishlar olib borilayotgan joylar "S" - hushtak chalish ko'chma signal belgisi bilan to'siladi. U ishlar olib borilayotgan yo'ning yoniga, shuningdek, har bir qo'shni asosiy yo'llarning yoniga o'rnatiladi (rasm 3.10).

"S" ko'chma signal belgilari xuddi shunday tartibda qo'shni asosiy yo'llar yoniga hamda ishlar olib borilayotganda, to'xtash signallari bilan (rasm 3.4, b va 3.5) yoki tezlikni cheklash signallari bilan to'silganda ham o'rnatiladi.



Rasm 3.10

Poezdlar 120 km/soat dan ortiq tezlikda Harakatlanuvchi peregonlarda "S" belgili ko'chma signallar ishlar olib borilayotgan joy uchastkasi chegarasidan 800-1500 m masofada o'rnatiladi.


POEZDLAR HARAKATI UCHUN TO'SIQ JOYLARNI VA ISHLAR OLIB BORILAYOTGAN JOYLARNI STANSIYALARDA TO'SISH

39. Poezdlar harakati uchun stansiya yo'llari va strelkali o'tkazgichlardagi har qanday to'siq poezd (manyovr tarkibi) kutilayotgani yoki kutilmayotganidan qat'iy nazar to'xtash signallari bilan to'silishi kerak.

Stansiyaning yo'llarida ishlar olib borilayotgan yoki to'siq joylarni to'xtash signallari bilan to'sganda, bu joyga yo'nalgan strelkali o'tkazgichlar shunday holatda o'rnatiladiki, ularga harakat tarkibi kira olmasin hamda burilmaydigan qilib mix qoziqlar bilan mahkamlanadi yoki qulflanadi.


To'siq yoki ishlar olib borilayotgan joyni to'sish uchun ko'chma qizil signal yo'l o'qiga o'rnatiladi (rasm 3.11, a).

Agar biror sababga ko'ra strelkali o'tkazgichning ostryaklari to'siq bor joyga yoki ishlar olib borilayotgan joy tarafiga yo'naltirilgan bo'lsa va bu yo'lni ajratishning iloji bo'lmasa, u holda bunday joy ikkala tarafdin ishlar olib boriladigan yoki to'siq joy chegarasidan 50 m masofada o'rnatiluvchi ko'chma qizil signallar bilan to'siladi (rasm 3.11, b). Bu holda strelkali o'tkazgichning ostryaklari to'siq yoki ishlar olib borilayotgan joydan 50 m dan yaqin masofada joylashgan bo'lsa, har bir strelkali o'tkazgich ostryaklari o'rtasiga ko'chma qizil signal o'rnatiladi (rasm 3.11, v).




Rasm 3.11

Strelkali o'tkazgichda to'siq yoki ishlar olib boriladigan joy qizil ko'chma signallar bilan to'silganda signallar quyidagicha o'rnatiladi: krestovina tarafidan - chegaraviy ustuncha qarshisida har bir qo'shilayotgan yo'llarning o'q chizig'iga; qarama-qarshi tomondan - ostryakdan 50 m masofada (rasm 3.12, a).



Rasm 3.12, a

Agar to'silishi kerak bo'lgan strelkali o'tkazgich yonida yana boshqa strelkali o'tkazgich joylashgan bo'lsa va uni to'siq bor strelkali o'tkazgichga harakat tarkibi chiqa olmaydigan qilib o'rnatish mumkin bo'lsa, bunday strelka shu holatda qulflanadi yoki mixlanadi. Bunday vaziyatda, mazkur izolyatsiyalovchi strelkali o'tkazgich tarafdin ko'chma qizil signal o'rnatilmaydi (rasm 3.12, b).




Rasm 3.12, b

Strelkali o'tkazgichni ko'rsatilgan yo'nalishga o'rnatish mumkin bo'lmasa, bunday vaziyatda to'siq yoki ishlar olib borilayotgan joydan shu strelkali o'tkazgich yo'nalishida 50 m masofaga ko'chma qizil signal o'rnatiladi (rasm 3.12, a).


Agar to'siq yoki ishlar olib borilayotgan joylar kirish strelkali o'tkazgichda joylashgan bo'lsa, peregona tarafidan bu joy yopiq kirish signali bilan to'siladi, stansiya tomonidan esa

chegaraviy ustunchaning qarshisida har bir qo'shiluvchi yo'lning o'q chizig'iga ko'chma qizil signallar o'rnatiladi (rasm 3.12, v).



Rasm 3.12, v

Agar to'siq yoki ishlar olib borilayotgan joy kirish strelkali o'tkazgich bilan kirish signalining oraliqida bo'lsa, peregon tarafdin yopiq kirish signali bilan, stansiya tarafidan esa - kirish strelkali o'tkazgich osryaklarining o'rtasiga ko'chma qizil signal o'rnatib to'siladi (rasm 3.12, g).




Rasm 3.12, g


Strelkali post navbatchisi, strelkali o'tkazgichda to'siq joyini payqagan bo'lsa, zudlik bilan bitta ko'chma qizil signalni to'siq joyida (ta'mirlash ishlarini boshlashdan oldin) o'rnatishi va bu xaqda stansiya navbatchisiga xabar berishi kerak.

40. Stansiyaning asosiy yo'llarida joylashgan tezlikni cheklash kerak bo'lgan joy, tezlikni cheklash ko'chma signallari hamda "Xavfli joy boshi" va "Xavfli joy oxiri" signal belgilari bilan 3.13 va 3.14 rasmlarda ko'rsatilgan tartibda to'siladi.


Agar tezlikni cheklash kerak bo'lgan joy stansiyaning qolgan boshqa yo'llarida joylashgan bo'lsa, u faqat tezlikni cheklovchi ko'chma signal bilan to'siladi. Bu signallarni o'rnatish tartibi 3.15 rasmda ko'rsatilgan.



Rasm 3.13



Rasm 3.14



Rasm 3.15

STANSIYA YO'LLARIDA HARAKAT TARKIBINI TO'SISH

41. Stansiyaning yo'llarida ta'mirlanayotgan vagonlar va 1 klass xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlar alohida yo'lda turgan bo'lsa, yo'lining o'q chizig'iga 50 m dan kam bo'lmagan masofaga o'rnatiluvchi (harakatga ochiq bo'lgan yo'lda ikkala tomonidan, boshi berk bo'lgan yo'llarida srelkali o'tkazgich tarafdin) ko'chma qizil signallar bilan to'siladi.

Agar bu holda oxirgi vagon bilan chegaraviy ustuncha orasidagi masofa 50 m dan kam bo'lsa, bunday vaziyatda ko'chma qizil signal yo'l o'qiga chegaraviy ustunchaning qarshisiga o'rnatiladi.

Joylardagi sharoit hisobga olingan holda, texnik xizmat ko'rsatilayotganda alohida tarkiblar va alohida guruh vagonlarni to'sish tartibi DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'ining buyrug'i bilan belgilanadi.

(41-band 3-abzatsiga "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvar 1/6-7-02 son ko'rsatmasiga asosan o'zgartirish kiritilgan).

Vagonlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash vaqtida, tarkiblarni markazlashgan to'sish qurilmalaridan DATK belgilagan tartibga muvofiq foydalanish mumkin.


PEREGONDA MAJBURAN TO'XTAGAN POEZDNI TO'SISH

42. Yo'lovchi poezd peregonda majburan to'xtaganda to'sishni oxirgi vagon kuzatuvchisi mashinistning ko'rsatmasiga binoan quyidagi hollarda bajaradi:

tiklash poezdi yoki o't o'chirish poezdi hamda yordamchi lokomotiv talab qilinib, agar yordam poezdni oxiridan ko'rsatilsa;

agar poezd signalizatsiya va aloqa vositalarining hammasi to'xtagan vaqtda to'g'ri yo'l bo'ylab ikki yo'llik peregonga yoki bir yo'llik peregonga jo'natilganda, uning orqasidan boshqa poezdni jo'natilgani xaqida xabar berilgan bo'lsa.

To'xtab qolgan yo'lovchi poezdini to'suvchi oxirgi vagonning kuzatuvchisi qo'l tormozlarini ishga tushirishi, poezdning oxirgi vagonidan 800 m masofada petardalarni o'rnatishi, shundan so'ng o'rnatilgan petardalardan 20 m masofaga uzoqlashib, peregona tomonga qo'l qizil signalini ko'rsatishi kerak (rasm 3.16).



Rasm 3.16

Boshqa poezdlar peregonda majburan to'xtab qolganda, ular faqat jo'natish aloqa va signalizatsiya vositalarining hammasi to'xtaganda to'g'ri yo'l bo'ylab ikki yo'lli yoki bir yo'lli peregonga amalga oshirilgan bo'lib, uning orqasidan boshqa poezdni jo'natilganligi xaqida xabar

berilgan hollardagina to'siladi. Bunday vaziyatlarda to'sishni mashinist yordamchisi bajaradi, u poezd to'xtashi bilan poezd oxiri tomoniga o'tib, poezdni oxirgi vagonida poezd signali bor-yo'qligini tekshirishi va peregonna diqqat bilan kuzatib, ketma-ket kelayotgan poezdni payqasa, zudlik bilan uni to'xtatish choralari ko'rish kerak.

Agar to'xtagan poezdga yordam poezdning boshidan ko'rsatilsa, yetakchi lokomotiv mashinisti tiklash (o't o'chirish) poezdi yoki yordamchi lokomotiv yaqinlashganida umumiy xavf (trevoga) signalini berishi kerak, kunduzi ko'rinish yomon bo'lganda projektor yoqishi kerak.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdni band peregonga yoki poezdlarning uzoqlashtishi bo'yicha ularning orqasidan jo'natish taqiqlanadi.

(42-bandga 7-xatboshi "O'z davtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyrug'i'ga asosan kiritilgan).

43. Peregonda to'xtagan yo'lovchi poezdining oxirini to'suvchi vagon kuzatuvchisi, tiklovchi (o't o'chirish) poezdi yoki yordamchi lokomotiv yetib kelib va to'xtagandan keyin yoki yo'lovchi poezd to'xtash joyiga yetib kelgan boshqa xodimga to'sishni topshirgandan keyin tarkibning yoniga qaytib kelishi mumkin.


Signalizatsiya va aloqa vositalarining hammasi ishlamay qolganda jo'natilgan poezdning oxiri oldida turuvchi mashinist yordamchisi, faqat orqadan kelayotgan poezd yetib kelib va to'xtagandan keyin yoki poezdni to'sishga zaruriyat qolmaganda, mashinist hushtak bilan uzatadigan signaldan keyin, lokomotivga qaytib kelishi mumkin.

44. Avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda, yo'lovchi poezdining peregonda to'xtaganida, oxirgi yo'lovchi vagonning kuzatuvchisi poezd signallarini ko'rinishini tekshirishi, diqqat bilan peregonna kuzatishi va ketma-ket kelayotgan poezdni payqasa, zudlik bilan uni to'xtatish choralari ko'rish kerak.

45. Ikki yo'llik yoki ko'p yo'llik peregonda relsdan tushish, to'qnashish, yuklarni ag'anashi va boshqa sabablar natijasida poezd majburan to'xtaganda, qo'shni yo'lda poezdlar harakati uchun to'siq joyini to'sish talab etilsa, mashinist umumiy xavf (trevoga) signalini uzatishi shart.

Bu hollarda yo'lovchi poezdi to'xtaganda to'sish poezdning bosh tarafidan mashinist yordamchisi tomonidan, poezdni oxiridan vagonining kuzatuvchisi tomonidan poezd boshi va oxiridan 1000 m masofada 3.17, a rasmda ko'rsatilgan tartibda petardalar o'rnatilib to'siladi.

Boshqa poezdlar to'xtagan vaziyatda to'sish mashinist yordamchisi tomonidan, poezd kelishi kutilayotgan yonidagi yo'lning to'siq bor joyidan 1000 m masofaga petardalarni 3.17, b rasmda ko'rsatilgandek o'rnatib to'siladi. Agar poezdni boshi to'siq bor joydan 1000 m dan ortiq masofada bo'lsa, petardalar yon yo'lda lokomotiv qarshisiga o'rnatiladi. Agar poezdning mashinisti yon yo'lda noto'g'ri yo'nalishda poezd jo'natilgani to'g'risida xabar olgan bo'lsa, u radio aloqa orqali mashinist yordamchisini shunday masofaga petardalar o'rnatish uchun chaqiradi va to'siq bor joyini qarama-qarshi tomoniga petardalar o'rnatiladi.



Rasm 3.17

Yo'lovchi poezdlarining harakat tezligi 120 km/soat dan ortiq bo'lgan uchastkalarda petardalarni o'rnatish masofalari DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Petardalar o'rnatilgandan keyin mashinist yordamchisi va vagon kuzatuvchisi petardalar o'rnatilgan joydan poezd tarafiga 20 m masofaga o'tishi va qizil signalni poezd kelishi mumkin bo'lgan tarafga ko'rsatib turishlari kerak.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdni peregonda yuk poezdlari, ishchi, tiklash poezdlari bilan kesishtirish taqiqlanadi.

(45-bandga 6-xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyrug'i'ga asosan kiritilgan).

46. Peregonda majburan to'xtab qolgan poezdni oxirini va boshini to'sishga hamda ikki yo'llik yoki ko'p yo'llik peregonning qo'shni yo'lida to'siq joyini to'sishga yetakchi lokomotiv mashinistining ko'rsatmasiga binoan lokomotiv brigadalarining xodimlari, yo'lovchi vagon kuzatuvchilari, konduktorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti xodimlari jalb qilinishi mumkin.

4-BOB

QO'L SIGNALLARI

47. Qo'l signallari bilan quyidagi talablar qo'yiladi:


a) **qizil ochiq holdagi bayroqcha bilan kunduzi va qizil chiroqli fonar bilan kechasi** - "To'xta! Harakat taqiqlanadi" (rasm 4.1).



Rasm 4.1

Kunduzi qizil bayroqcha hamda kechasi qizil chiroqli fonar bo'lmasa to'xtash signallari quyidagicha uzatiladi: kunduzi - **sariq bayroqcha, qo'l yoki boshqa biron predmetning aylanma harakati bilan**; kechasi - **har qanday rangdagi chiroqli fonarning aylanma harakati bilan** (rasm 4.2);


b) **sariq ochiq holdagi bayroqcha bilan** kunduzi va sariq chiroqli qo'l fonari bilan kechasi - ogohlantirish yoki DATK boshqaruvi raisining buyrug'ida ko'rsatilgan tezlikda, agar tezlik ko'rsatilmagan bo'lsa, 25 km/soat dan ortiq bo'lmagan tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi (rasm 4.3).



Rasm 4.2

Qo'l fonarining sariq chirog'idan faqat stansiyaning hududida foydalanish mumkin. Kechasi sariq chiroqli qo'lfonari bo'lmasa, stansiyada tezlikni kamaytirish signali **shaffof-oq chiroqli qo'l fonarining yuqoriga va pastga asta-sekin harakati bilan** uzatilishi mumkin (rasm 4.4).


Peregonda kechasi hamma hollarda tezlikni kamaytirish signali **qo'l fonarining shaffof-oq chirog'i bilan sekin-asta yuqoriga va pastga tushirish harakati bilan** uzatiladi (rasm 4.4).



Rasm 4.3

Rasm 4.4


48. Avtotormozlarni tekshirish vaqtida uzatiladigan signallar:
mashinistdan sinov tormozlashni talab qilinganda (og'zaki ogohlantirishdan keyin) kunduzi - qo'lni vertikal yuqoriga ko'tarib, kechasi - **shaffof-oq chiroqli qo'l fonarini yuqoriga ko'tarib** (rasm 4.5). Mashinist lokomotivdan bitta qisqa signal bilan javob beradi va tormozlashga kirishadi;



Rasm 4.5

mashinistdan tormozni bo'shatish talab qilinganda kunduzi - **qo'lni gorizontol holda o'z oldida harakatlantiradi**, kechasi - **shaffof-oq chiroqli qo'l fonarni gorizontol holda o'z oldida harakatlantiradi** (rasm 4.6). Mashinist lokomotivdan ikkita qisqa signal bilan javob beradi va tormozni bo'shatadi.


Avtotormozni tekshirishda ko'rsatmalar uzatish uchun radio aloqa yoki ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari qo'llanilishi mumkin.



Rasm 4.6

49. Zimmasiga poezdlarni kuzatish yuklangan stansiya navbatchisi, poezd jo'natilganda yoki u stansiyadan to'xtamasdan o'tganda quyidagilarni ko'rsatadi: kunduzi - **vertikal ko'tarilgan**

qo'lidagi oq rangga bo'yalgan gardishi qora rangdagi qo'l diski yoki o'ralgan sariq bayroqcha; kechasi - ko'tarilgan ko'k chiroqli qo'l fonari (rasm 4.7).



Rasm 4.7

Bu poezdni stansiyadan (peregonna egallashga tegishli ruxsat bo'lganda, chiqish signallari bo'lmagan yo'llaridan) jo'nashi mumkinligini yoki stansiyadan o'tish uchun belgilangan tezlikda to'xtamasdan ketib borishi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'rsatib o'tilgan signal poezd to'xtamasdan ketib borayotganda, kelayotgan poezd lokomotivining stansiya navbatchisi yonidan o'tguniga qadar ko'rsatiladi.

Jadvalda mavjud bo'lmagan yo'lovchi, pochta-bagaj va yuk-yo'lovchi poezdlarini to'xtatish uchun, zimmasiga poezd kutib olish yuklangan stansiya navbatchisi kunduzi - **qo'l qizil diskni yoki ochiq holdagi qizil rangli bayroqchani**, kechasi - **qizil chiroqli qo'l fonarini** (rasm 4.8) ko'rsatadi.

Stansiya navbatchisining ish joyi strelka postiga ko'chirilgan stansiyada, poezd yon tomondagi yo'lga qabul qilinsa yoki poezd stansiyada to'xtasa (poezdlar jadvalidan qat'iy nazar) stansiya navbatchisi kunduzi - **yopiq holdagi sariq bayroqcha**; kechasi - **qo'l fonarining sariq chirog'ini** ko'rsatadi.


Stansiya navbatchisi poezdlarni yuqori qismi ko'k rangda va obodi qizil rangda bo'lgan bosh kiyimida kutib olishi va kuzatishi shart.

(49-bandning 5-abzatsiga «O'zdavtemiryo'lnazorat» DI boshlig'ining 2010 yil 15 iyun 57-son buyrug'iga asosan o'zgartirish kiritilgan).




Rasm 4.8

50. Signalistlar va strelka postining navbatchilari poezdlarni kutib oladilar: poezdni asosiy yo'ldan to'xtamasdan o'tkazish uchun kunduzi - **o'ralgan sariq bayroqcha bilan**; kechasi - **qo'l fonarining yorqin-oq rangli chirog'i bilan** (rasm 4.9);



Rasm 4.9

poezd yon tomondagi yo'lga qabul qilinsa yoki stansiyada to'xtasa: kunduzi - **ochiq holdagi sariq bayroqcha bilan**; kechasi - **qo'l fonarning sariq chirog'i bilan** (rasm 4.10).



Rasm 4.10

51. Signalistlar va strelkali post navbatchilari har qanday holatlarda, stansiyadan jo' nayotgan poezdlarni kunduzi **o'ralgan sariq bayroqcha bilan** va kechasi - **qo'l fonarining yorqin-oq chirog'i bilan** kuzatadilar.

52. Poezddan lokomotiv mashinistiga to'xtash signali kunduzi - **ochiq qizil bayroqcha bilan**; kechasi - **qo'l fonarining qizil chirog'i bilan** beriladi.

53. Yo'lovchi poezdlar stansiyada to'xtagandan keyin jo'nash vaqtida radiokupe (shtab) va oxirgi vagon kuzatuvchilari (boshi berk yo'llaridan poezdni jo'natish hollari bundan mustasno) platforma tarafiga (platformani oxirigacha):


kunduzi - **o'ralgan sariq bayroqcha**;

kechasi - **qo'l fonarining yorqin-oq chirog'ini** ko'rsatishlari kerak.

Bu poezdni yaxshi holatda o'tganini ko'rsatadi. Boshqa vagonlar kuzatuvchilari vagon yon tomonidagi eshiklarini berkitib, platforma bo'ylab o'tayotganda tambur derazalari orqali berilishi mumkin bo'lgan signallarni kuzatib o'tishadi.

54. Temir yo'llar, sun'iy inshootlar kuzatuvchilari, pereezdlar navbatchilari yo'llar bo'shligida poezdlarni kutib oladilar: kunduzi - **o'ralgan sariq bayroqcha bilan**, kechasi - **qo'l fonarining yorqin-oq chirog'i bilan** (rasm 4.11).

Tezlikni cheklovchi yoki to'xtash signallari bilan to'silgan joylarda, ular poezdlarni kunduzi yoki kechasi yo'lda o'rnatilgan signallarga mos signallar bilan kutib oladilar.




Rasm 4.11

5-bob

SIGNAL KO'RSATKICHLARI VA BELGILARI. MARSHRUT KO'RSATKICHLARI

55. Qabul yo'lini yoki poezd yoki manyovr tarkibining harakatlanish yo'nalishini ko'rsatish zarur bo'lgan hollarda, svetoforlar machtasida yoki alohida machtada joylashtiriluvchi (raqamli, xarfli yoki holatni ko'rsatuvchi) **oq rangli chiroqli yo'nalish ko'rsatkichlaridan** foydalaniladi (rasm 5.1, a).



Rasm 5.1

Guruhli chiqish va marshrut svetoforlarida poezd harakatiga ruxsat etilgan yo'l raqamini ko'rsatish uchun **yashil rangli chiroqli marshrut ko'rsatkichlari** o'rnatiladi (rasm 5.1, b).


Bu ko'rsatkichlardan chiqish yoki marshrut svetoforida **oq rangli chiroq** mavjud bo'lganda, manyovr tarkibiga harakat ruxsat etilgan yo'l raqamini ko'rsatish uchun ham foydalanish mumkin.

STRELKA KO'RSATKICHLARI

56. Yakka strelkalarining yoritiluvchi strelka ko'rsatkichlari har ikki tomonga quyidagilarni ko'rsatadi:


strelka to'g'ri yo'l bo'ylab yo'naltirilgan - kunduzi **ko'rsatkich tor tomonining oq to'g'ri to'rtburchagi**; kechasi - **oq rangli chiroq** (rasm 5.2, a);

strelka yon yo'lga yo'naltirilgan - kunduzi **ko'rsatkichning keng tomoni**; kechasi - **sariq rangli chiroq** (rasm 5.2, b).



Rasm 5.2

57. Kesishuvchi strelkalarining holati ikki oddiy strelka ko'rsatkichlari yordamida strelkalar quyidagicha o'rnatilganini ko'rsatadi: to'g'ri yo'l bo'ylab - kunduzi har ikkala ko'rsatkichda **ko'rsatkichlarning tor tomonining oq to'g'ri to'rtburchaklari**; kechasi - **oq rangli chiroqlar** (rasm 5.3, a);




Rasm 5.3, a

to'g'ri yo'l bilan kesishganda - kunduzi har ikkala ko'rsatkichda **ko'rsatkichlarning keng tomonlari**; kechasi - **sariq rangli chiroqlar** (rasm 5.3, b);




Rasm 5.3, b

to'g'ri yo'ldan yon yo'lga - kunduzi yaqin ko'rsatkichda **ko'rsatkich keng tomoni**, kechasi - **sariq rangli chiroq** ko'rinadi, uzoq ko'rsatkichda esa kunduzi ko'rsatkich **tor tomonining oq to'g'ri to'rtburchagi**, kechasi – **oq rangli chiroq** ko'rinadi (rasm 5.3, v);



Rasm 5.3, v

yon yo'ldan to'g'ri yo'lga - kunduzi yaqin ko'rsatkichda ko'rsatkich **tor tomonining oq to'g'ri to'rtburchagi**, kechasi - **oq rangli chiroq**, uzoq ko'rsatkichda esa, kunduzi ko'rsatkichning **keng tomoni**, kechasi esa **sariq rangli chiroq** ko'rinadi (rasm 5.3, g).



Rasm 5.3, g

58. Yoritilmaydigan strelka ko'rsatkichlar quyidagilarni ko'rsatadi:
strelka to'g'ri yo'l bo'ylab yo'naltirilgan - **strelka shaklidagi ko'rsatkich qirrasi bilan yo'l bo'ylab yo'naltirilgan** (rasm 5.4, a);



Rasm 5.4, a
strelka yon yo'lga yo'naltirilgan - **strelka shaklidagi ko'rsatkich yon yo'l tomon yo'naltirilgan** (rasm 5.4, b).




Rasm 5.4, b

OLIB TASHLASH VA YO'L CHEKLASH QURILMALARI KO'RSATKICHLARI

59. Olib tashlash va yo'l cheklash qurilmalari ko'rsatkichlari quyidagilarni bildiradi:


"Yo'l cheklangan" - kunduzi **gorizontal qora chizikli oq doira**, kechasi - xuddi shunday **qora chizikli oq rangli chiroq** ko'rinadi (rasm 5.5).




Rasm 5.5

"Yo'ldan cheklash olingan" - kunduzi **vertikal qora chizikli oq doira yoki to'g'ri to'rtburchak**, kechasi xuddi shunday **qora chizikli oq rangli chiroq** ko'rinadi (rasm 5.6).

Olib tashlash qurilmalari (olib tashlash boshmoqlari, olib tashlash ostryaklari yoki olib tashlash strelkalari) ni o'rnatish joylari bu qurilmalar markazlashuvga kiritilmaganda hamda ular cheklovchi holatining nazorati bo'lmagan holatlarda ko'rsatkichlar bilan jihozlanadi.



Rasm 5.6



Rasm 5.7


Yo'l cheklash ko'rsatkichlari berk yo'llarning to'siqlarida brusning o'ng chekkasida o'rnatiladi va ularning signal ko'rsatkichi faqat yo'l tomon beriladi (rasm 5.7).

Bu ko'rsatkichlarning yoritilishi yoki yoritilmasligi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Yo'l cheklashning signal asbobi sifatida strelka fonarlaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

GIDRAVLIK KOLONKALAR KO'RSATKICHLARI

60. Hidravlik kolonka ko'rsatkichi - fonar - agar kolonkaning buraluvchi qismi yo'lga ko'ndalang o'rnatilgan bo'lsa, kechasi har ikkala tomonga **qizil chiroqda yonadi**; kunduzi kolonkaning **qizil rangga** bo'yalgan buraluvchi qismining o'zi ko'rinadi va "To'xta" signalini bildiradi (rasm 5.8).




Rasm 5.8

Agar kolonkaning buraluvchi qismi yo'l bo'ylab joylashgan bo'lsa, kechasi har ikki tomonga fonarning **tiniq oq rangli chirog'i** ko'rinadi.

POEZDLARDA NOSOZ VAGONLAR MAVJUDLIGINING KO'RSATKICHLARI

61. Poezd harakat mobaynida harakat tarkibining texnikaviy holatini avtomat tarzda nazorat qilish vositalari o'rnatilgan temir yo'l uchastkalarida, kontakt tarmog'i ustunlari yoki alohida machtalarda o'rnatilgan signal chiroqli ko'rsatkichlardan (rasm 5.9) yoki ovoqli informatorlardan foydalaniladi.



Rasm 5.9

Signal ko'rsatkichida, poezd tarkibida nosoz vagonlar mavjudligi xaqida ogohlantiruvchi **tiniq-oq rangda yonuvchi tasmalar** paydo bo'lganida hamda radio aloqa bo'yicha stansiya navbatchisi (poezd dispetcheri) dan poezdning stansiya tomon harakatlanish mumkinligi yoki uning peregonida zudlik bilan to'xtalishi kerakligi xaqida ko'rsatma olgan mashinist mos ravishda quyidagi amallarni bajarishi shart:

- harakat tezligini 20 km/soat gacha ravon pasaytirish choralarini ko'rishi va alohida hushyorlik bilan harakat tarkibini kuzatgan holda, stansiya qabul qilish yo'lida chiqish belgisi ko'rsatkichidan qat'iy nazar to'xtab o'tish;


- peregonida poezdni xizmat tormozi bilan to'xtatishi, bu xaqda peregonidagi poezdlar mashinistlariga xabar berishi, nosoz vagonlarni ko'zdan kechirishi va stansiya navbatchisiga (poezd dispetcheriga) ularning poezd bilan stansiyaga harakatlanish mumkinligi yoki tarkibga vagon ko'ruvchilarining kelishini talab qilish xaqida xabar berishi.

Stansiya navbatchisi (poezd dispetcheri) bu holda poezdlarni xavfsiz o'tkazishni ta'minlovchi qo'shimcha choralarni ko'radi: qo'shni yo'l bo'ylab harakatlanuvchi poezdlar mashinistlariga xabar beradi va zarur hollarda poezdning stansiyadan jo'natilishini to'xtatadi.

Oddiy holatda signal ko'rsatkichlari yoritilmaydi va ular signal ahamiyatiga ega emas.

BLOK-UCHASTKALAR CHEGARASINING KO'RSATKICHLARI

62. Avtomat lokomotiv signalizatsiyasi signalizatsiya va aloqa vositalarining mustaqil vositasi sifatida qo'llaniluvchi temir yo'l uchastkalarida blok-uchastkalar chegaralarida **nur qaytargichli va raqamli literli jadvali** signal belgilari o'rnatiladi (rasm 5.10).



Rasm 5.10

"TOK QABUL QILGICHNI TUSHIR" KO'RSATKICHLARI

63. Doimiy tokda elektrlashtirilgan uchastkalarda tok ajratgich oldida, kontakt tarmog'ining biror-bir stansiyasida kuchlanishning to'satdan o'chirilishida, elektr harakat tarkibining tok qabul qilgichni ko'targan holda o'tishga yo'l qo'yilmaydigan vaziyatlarida, kontakt tarmog'i ustunlariga yoki alohida machtalarga joylashtiriluvchi "Tok qabul qilgichni tushir" chiroqli signal ko'rsatkichlar qo'llaniladi (rasm 5.11).

Signal ko'rsatkichda **yonib-o'chuvchi tiniq-oq rangli tasmaning** paydo bo'lganida mashinist cheklangan tok ajratgichni tok qabul qilgichni tushirgan holda o'tish uchun darhol choralar ko'rishi shart.

Oddiy holda ko'rsatkichlarning signal tasmalari o'chiq bo'ladi va bu holda ko'rsatkichlar signal ahamiyatiga ega bo'lmaydilar.




Rasm 5.11

DOIMIY SIGNAL BELGILARI

64. "Gaz" va "Neft" doimiy signal belgilari (rasm 5.12, a, b) temir yo'llarning neft-gaz quvurlari bilan kesishgan joylarda bevosita kontakt tarmog'i ustunlarida yoki alohida ustunlarda o'rnatiladi va kesishuv joylariga o'ta diqqat (hushyorlik) bilan yaqinlashish zaruratini ko'rsatadi.


"Karst xavfli uchastkaning boshi" va "Karst xavfli uchastkaning oxiri" doimiy signal belgilari (rasm 5.12, v, g) temir yo'llarning karstli zonalardan o'tish joylarida bevosita kontakt tarmog'i ustunlarida yoki alohida ustunlarda joylashtiriladi va chegaralangan uchastkani o'ta diqqat (hushyorlik) bilan o'tish kerakligini ko'rsatadi.



Rasm 5.12

65. "Tormozlash boshi" (rasm 5.13, a) va "Tormozlash oxiri" (rasm 5.13, b) doimiy signal belgilari lokomotiv mashinistiga harakatlanish mobaynida avtotormozlar ishini tekshirish joylarini ko'rsatadi.


Bunday signal belgilarini joylashtirish tartibi komissiya tomonidan aniqlanadi va DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.



Rasm 5.13

66. "Tok qabul qilgichni tushir" signal ko'rsatkichlardan foydalangan holatda uning oldidan **nur qaytargichli** "Diqqat! Tok ajratgich" **doimiy signal belgisi** o'rnatiladi (rasm 5.14, a).


Nur qaytargichli "Tok qabul qilgichni ko'tar" **doimiy signal belgisi** harakat yo'nalishi bo'ylab tok ajratgichdan so'ng o'rnatiladi (rasm 5.14, b).



Rasm 5.14

"Tok qabul qilgichni tushir" signal ko'rsatkichlar va "Tok qabul qilgichni ko'tar" va "Diqqat! Tok ajratgich" doimiy signal belgilarini joylashtirish sxemasi 5.15 rasmda keltirilgan. Ularning joylashuvi doimiy signallarning ko'rinish va qabul qilinishini to'sishi kerak emas.

12-vagonli elektrpoezdlar qatnaganda tok ajratgichdan "Tok qabul qilgichni ko'tar" doimiy signal belgisigacha bo'lgan masofa 250 m dan kam bo'lmasligi kerak.




Rasm 5.15

67. Tok ajratgichning cheklovchi kontakt tarmog'i ustunlari alohida belgilar - **navbatma-navbat tortilgan to'rt qora va uch oq gorizontaal tasmalarga** ega bo'lishlari kerak. Undan tashqari, poezd harakati yo'nalishi bo'yicha birinchi ustun qo'shimcha ravishda **vertikal qora tasma** bilan belgilanadi (rasm 5.16, a).




Rasm 5.16, a

Belgilar bevosita ustunlarda yoki ularga mahkamlangan shitlarda tasvirlanishi mumkin (rasm 5.16, b). Ko'p yo'lli uchastkalarda ko'rsatilgan belgilarni kontakt tarmog'i konstruksiyalarida yo'l o'qi ustida joylashtirilishi mumkin. Elektr harakat tarkibining tok qabul qilgichlar ko'tarilgan holda bu ustunlar (belgilar) oralig'ida to'xtash taqiqlanadi.



Rasm 5.16, b

68. Cheklovchi ustunchalar undan so'ng harakat tarkibini strelkali o'tkazgich yoki berk kesishuv yo'nalishida joylashtirilishi mumkin bo'lmagan joyni ko'rsatadi (rasm 5.17, a, b). Cheklovchi ustunchalarning asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llarida turlicha bo'yalishi kerak (rasm 5.17, b).



Rasm 5.17

69. "Stansiya chegarasi" belgisi (rasm 5.18) ikki va ko'p yo'lli uchastkalarda stansiya chegarasini ko'rsatadi. Belgida yozuv har ikkala tomonda bo'lishi kerak.

70. "Xavfli joy boshi" (rasm 5.19, a) va "Xavfli joy oxiri" (rasm 5.19, b) nur qaytargichli doimiy signal belgilari poezdning kichik tezlikda harakatlanishini talab etadigan uchastka chegaralarini bildiradi. "Xavfli joy oxiri" signal belgisi "Xavfli joy boshi" belgisining orqa tomoniga o'rnatiladi.



Rasm 5.18



Rasm 5.19

71. Ogohlantiruvchi signal belgilari "S" belgisi - hushtak berish - tonnellar, ko'priklar, temir yo'l o'tish joylari va h.z. lar oldida joylashtiriladi (rasm 5.20);

"Lokomotivni to'xtatish" belgisi (rasm 5.21) DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tayinlagan komissiya belgilagan joylarda o'rnatiladi.

(71-band 2-abzatsiga "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvar 1/6-7-02 son ko'rsatmasiga asosan o'zgartirish kiritilgan).




Rasm 5.20



Rasm 5.21


72. Nur qaytargichli ogohlantiruvchi signal belgilari elektrlashtirilgan uchastkalarda o'rnatiladi:


"Tok o'chirilsin" (rasm 5.22, a) - neytral qo'yilma oldidan;



"Tok o'chirishga tayyorlanmoq" (rasm 5.22, a') - neytral qo'yilma oldidan yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezd yo'nalishi tomonga "Tok o'chirilsin" asosiy signal belgisidan 150-200 metr masofada;

(72-bandga 3-xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyrug'i'ga asosan kiritilgan).






Rasm 5.22

"Elektrovozda tok qo'shilsin" (rasm 5.22, b);

"Elektropoezdga tok qo'shilsin" (rasm 5.22, v) - neytral qo'yilmadan keyin.


Bu belgilarni joylashtirish sxemasi rasm 5.23 da keltirilgan.



Rasm 5.23

"Kontakt simning yakuni" signal belgisi (rasm 5.24) kontakt tarmog'ida kontakt simining ishchi zonasi tugallanadigan joylarda o'rnatiladi.

73. "Birinchi vagonni to'xtatish" ogohlantiruvchi signal belgisi (rasm 5.25) motorvagon poezdlar qatnaydigan joylarda yo'lovchi platformalarda o'rnatiladi.




MUVAQQAT SIGNAL BELGILARI

74. Elektr harakat tarkibining tok qabul qilgichni ko'targan holda harakatlanishiga yo'l qo'yilmaydigan joylarda (kontakt tarmog'ining nosozligida, poezdlar harakatida tok qabul qilgichlarni tushirishni talab etadigan rejali ta'mirlash va qurilish ishlarini bajarishda) quyidagi nur qaytargichli muvaqqat signal belgilari o'rnatiladi:

"Tok qabul qilgichni tushirishga tayyorlan" (rasm 5.26, a);

"Tok qabul qilgichni tushir" (rasm 5.26, b);

"Tok qabul qilgichni ko'tar" (rasm 5.26, v).



Rasm 5.26

Bu belgilarni o'rnatish sxemasi rasm 5.27 da keltirilgan.




Rasm 5.27

Agar ikki yo'lli uchastkalarda poezdlarni yo'llarning biri va kontakt tarmog'i bilan jihozlanmagan vaqtinchalik s'ezdlar orqali o'tkazilgan holda rejali yo'l ta'mirlash va qurilish ishlari bajarilayotganda "Tok qabul qilgichni tushir" signal belgisi cheklanuvchi uchastkadan 100 m dan kam bo'lmagan masofada o'rnatiladi.

Qolgan signal belgilari rasm 5.27 da keltirilgan sxema bo'yicha o'rnatiladi.

Kontakt tarmog'ining harakat tarkibi tok qabul qilgichlarini ko'tarib harakatlanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydigan nosozliklarining behosdan aniqlanganida bu nosozlikni aniqlagan elektr ta'minoti distansiyasining xodimi kutilayotgan poezd tomon 500 m ga borishi va yaqinlashayotgan poezd mashinistiga "Tok qabul qilgichni tushir" yo'l signalini (rasm 5.28) berishi shart:




Rasm 5.28

kunduzi - **chap qo'l vertikal ko'tarilgan holda o'ng qo'ling gorizontol chiziq bo'yicha takror harakatlari;**

kechasi - **tiniq oq rangli chiroqli fonarning vertikal va gorizontol bo'yicha takror harakatlari.**

Mashinist xabarlovchi signal berishi, elektr zanjiri toksizlanganda tok qabul qilgichlarni tushirishi va alohida hushyorlik bilan zararlangan joydan o'tishi, kontakt tarmog'ining sozligiga ishonch hosil qilgach tok qabul qilgichni ko'tarishi va harakatni davom ettirishi shart.

75. Qor tozalagichlar ishlayotgan uchastkalarda to'siqlar odidan "Surgichni ko'tar, qanotlarni yop" (rasm 5.29), to'siqlardan so'ng esa - "Surgichni tushir, qanotlarni och" (rasm 5.30) muvaqqat signal belgilari o'rnatiladi.




Rasm 5.29

Rasm 5.30


Rasm 5.31

Tezkor qor tozalagichlar ishlayotgan uchastkalarda "Surgichni ko'tar, qanotlarni yop" belgilaridan tashqari "Surgichni ko'tarishga va qanotlarni yopishga tayyorlan" muvaqqat signal belgilari (rasm 5.31) o'rnatiladi.

Qor tozalagichlar ishlayotgan uchastkalarda signallarni o'rnatish sxemasi rasm 5.32 da, tezkor qor tozalagichlar ishlayotganda esa rasm 5.33 da keltirilgan.




Rasm 5.32



Rasm 5.33

Oralig'ida qor tozalagichning ishlash imkoniyati bo'lmaydigan o'zaro yaqin joylashgan ikki to'siq mavjud bo'lganida ustma-ust ikki belgi o'rnatiladi (rasm 5.34).



Rasm 5.34

76. Signal belgilarida o'rnatiluvchi nur tarqatgichlar tiniq oq rangli shishadan tayyorlanishi shart, ba'zi signal belgilarida esa DATK tomonidan tasdiqlangan texnikaviy talablarga muvofiq ravishda nur tarqatgichlar oq rangli materialdan tayyorlanishi mumkin.

Zarur hollarda DATK ko'rsatmalariga muvofiq va "O'zdavtemiryo'lnazorat" bilan kelishgan holda ba'zi signal belgilari chiroqli yoki yoritiluvchi bo'lishi mumkin.


6-bob

MANYOVR ISHLARIDA QO'LLANILUVCHI SIGNALLAR


77. Manyovr svetoforlaridan quyidagi signallar uzatiladi:

bitta **oq-oy** rangli chiroq - "Manyovrlarni bajarishga ruxsat" (rasm 6.1);

bitta **ko'k chiroq** - "Manyovrlarni bajarish taqiqlanadi" (rasm 6.2).



Rasm 6.1



Rasm 6.2

Manyoavlarni bajarishga ruxsat, chiqish va marshrut svetoforlarida o'chirilgan qizil chiroqda bitta oq-oy rangli chiroq orqali berilishi mumkin. Manyovrlar rayonida chiqish va marshrut svetoforlarining qizil chirog'ida o'tishga guruhli manyovr svetoforlarining oq-oy rangli chirog'i ham ruxsat berishi mumkin.


Bir yo'lli liniyalar hamda ikki tomonlama harakat uchun avtoblokirovka bilan jihozlangan liniyalar stansiyalarida kirish svetofori machtasida stansiya tomondan bitta oq-oy rangli chiroq - "Manyovr tarkibining stansiya chegarasidan o'tishga ruxsat" signali qo'llanilishi mumkin.

Stansiyaning ma'lum rayonida manyovrlarga ruxsat etuvchi guruhli manyovr svetofori tomonidan bir yoki har ikkala tomonga signal uzatiladi.

Manyovr svetoforlarida zarur hollarda DATK boshqaruvi raisining ruxsati bilan ko'k chiroqlar o'rniga qizil chiroqlar qo'llanilishi mumkin.

Tortilgan saralash yo'llarida turtkilar bilan manyoavlarni bajarishda signallarni uzatish uchun svetoforli signalizatsiyani qo'llash DATK boshqaruvi raiisi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Strelka va signallar elektr markazlashtirilgan stansiyalarda manyovr svetoforlarida **ikkita oq-oy rangli signal** - "Manyoavlarni bajarishga ruxsat, bu svetofor bilan cheklangan yo'l bo'sh" signali qo'llanilishi mumkin.



Rasm 6.3

78. Saralash tepaligi svetoforlari quyidagi signallarni uzatadi (rasm 6.3):

bitta yashil chiroq - "Vagonlarni belgilangan tezlikda tushirishga ruxsat";

bitta sariq chiroq - "Vagonlarni pasaytirilgan tezlikda tushirishga ruxsat";

bitta sariq va bitta yashil chiroq - "Vagonlarni belgilangan va pasaytirilgan tezliklar oralig'ida tezlikda tushirishga ruxsat";

bitta qizil chiroq - "To'xta! Tushirish taqiqlanadi";

chiroqli ko'rsatkichda qizil chiroq bilan bir vaqtning o'zida yonuvchi oq rangli "N" harfi - "Vagonlarni saralash tepaligidan qabul parki yo'li yoki tortilgan yo'lga uzat".

Saralash tepaligidan vagonlarni saralash tepaligi svetoforlarining **bitta yashil chiroq, bitta sariq va bitta yashil chiroq va bitta sariq chiroq** bo'yicha tushirish tezliklari DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.


Saralash tepaligi svetofori signalining ko'rinishi ta'minlanmaydigan holatlarda mashinistni saralash svetoforining signali xaqida xabarlash uchun takrorlash svetoforlari yoki tepalik avtomat lokomotiv signalizatsiyasi qo'llaniladi. Takrorlash va lokomotiv svetoforlari saralash tepaligi asosiy svetofori signallarini ko'rsatishi kerak. Qabul parki yo'lining o'rtasida joylashgan takrorlash svetoforida **qizil chiroq** o'rniga **ko'k chiroq** qo'llanilishi mumkin.

Qabul parki yo'llarida tarkiblarni saralash svetoforigacha uzatishga ruxsat berish uchun hamda saralash tepaligi pastki yo'llarida signalizasiya uchun manyovr svetofori qo'llanilishi mumkin.

79. Manyovr svetoforlari bo'lmagan hollarda manyovrlarda chiqish va marshrut svetoforlarining qizil chirog'idan o'tishga **stansiya navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga binoan manyovrlar rahbari tomonidan** shaxsan radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi yoki yo'l signal asboblari orqali uzatiluvchi signal yordamida ruxsat etiladi.

80. Manyovrlarda yo'l va tovushli signallar uzatiladi:

"Lokomotivga boshqaruvi oldinda harakatlanishga ruxsat" - **kunduzi yuqoriga ko'tarilgan ho'lda yoyilgan sariq bayroqcha bilan;** kechasi - **tiniq-oq rangli chiroqli qo'l fonari bilan harakat** (rasm 6.4) yoki **bitta uzun tovush;**



Rasm 6.4

"Lokomotivga boshqaruvi orqada harakatlanishga ruxsat" - kunduzi **pastga tushirilgan ho'lda yoyilgan sariq bayroqcha bilan;** kechasi - **tiniq oq rangli chiroqli qo'l fonari bilan harakat** (rasm 6.5) yoki **ikkita uzun tovush;**



Rasm 6.5

"Sekinroq" - kunduzi yoyilgan sariq bayroqchanning; kechasi - tiniq-oq rangli chiroqli qo'l fonarining yuqoriga va pastga asta harakati (rasm 6.6) yoki ikkita qisqa tovush;



Rasm 6.6

"To'xta" - kunduzi yoyilgan qizil yoki sariq bayroqchanning; kechasi - istalgan rangli chiroq qo'l fonarining aylana bo'ylab harakati (rasm 6.7) yoki uchta qisqa tovush.



Rasm 6.7

Manyovrlarda tovushli signallar yo'l hushtagi yoki surnaycha yordamida uzatiladi.

81. Manyovrlarda signallar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlagan holda lokomotiv (motorvagon tarkibi), maxsus o'zi yurar harakat tarkibi hushtagi bilan takrorlanishi kerak.


Signalchi yoki strelka posti navbatchisiga strelkani u yoki bu yo'lga o'rnatish bo'yicha topshiriq stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida o'rnatilgan tartibga muvofiq ravishda turli davomiylikdagi tovushlar (lokomotivlar hushtagi va manyovrlar rahbarlarining hushtagi) yoki stansiyaning texnikaviy jihozlanishiga bog'liq holda boshqa vositalar orqali uzatilishi mumkin.

7-bob

POEZDLAR, LOKOMOTIVLAR VA BOSHQA HARAKAT BIRLIKLARINI BELGILASH UCHUN QO'LLANILADIGAN SIGNALLAR¹

82. Poezdning boshi bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda teskari temir yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi – **projektorning tiniq-oq rangli bir chirog'i bilan; kechasi qo'shimcha ravishda bufer brusidagi fonarlarning ikkita tiniq-oq rangli chiroqlari bilan belgilanadi** (rasm 7.1, a).


(82-band 1-xatboshi matniga o'zgartirish "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyrug'i ga asosan kiritilgan).



Rasm 7.1, a

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo'lovchi poezdning boshi bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda teskari temir yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi va kechasi – **projektorning tiniq-oq rangli bir chirog'i bilan va bufer brusidagi fonarlarning ikkita tiniq-oq rangli chiroqlari bilan belgilanadi** (rasm 7.1, a¹).


(82-bandga ikkinchi xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyrug'i ga asosan kiritilgan).



Rasm 7.1, a¹.

Poezdning boshi teskari yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi va kechasi chap tomondan **fonarning qizil rangli chirog'i**, o'ng tomondan fonarning **tiniq-oq rangli chirog'i** bilan belgilanadi (rasm 7.1, b).


¹Ushbu bobda signallarni chap yoki o'ng tomondan joylashtirish bo'yicha barcha ko'rsatmalar harakat yo'nalishi bo'yicha berilgan



Rasm 7.1, b


Bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarining to'g'ri va teskari yo'llari bo'ylab harakatlanayotgan poezd boshi yoki vagonlarsiz harakatlanuvchi lokomotivga tunda **projektorning tiniq-oq rangli chirog'i** qo'shimcha qiliniladi. Motorvagon poezdning boshi tunda **projektorning bir tiniq-oq rangli chirog'i** bilan belgilanishi mumkin.

83. Yuk poezdlarining boshi bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri yo'l bo'ylab vagonlari oldinda holda harakatlanganda kunduzi signallar bilan belgilanmaydi, kechasi esa **bufer brusidagi fonarning tiniq-oq rangli chirog'i** bilan belgilanadi (rasm 7.2, a).



Rasm 7.2, a

Teskari yo'l bo'ylab vagonlari oldinda holda harakatlanganda yuk poezdining boshi poezdni kuzatayotgan hodimning oldingi o'tish maydonchasining chap tomonida turgan holda kunduzi - **yoyilgan qizil bayroqcha**, kechasi - **bufer brusidagi fonarning tiniq-oq rangli chirog'i va qo'l fonarining qizil chirog'i** orqali belgilanadi (rasm 7.2, b).



Rasm 7.2, b


84. Bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri va teskari yo'llar bo'ylab harakatlanganda poezd oxiri quyidagicha belgilanadi:

yuk va yo'lovchi poezdlar kunduzi va tunda - **bufer brusi o'ng tomonidagi nur tarqatgichli qizil doiracha** (rasm 7.3, a);

yo'lovchi va pochta-bagaj poezdlar kunduzi va tunda - **uchta qizil chiroq** (rasm 7.3, b).

yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar kunduzi va tunda – bufer brusidagi ikki qizil chiroqlar (rasm 7.3, v).


(84-bandga to'rtinchi xatboshi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2012 yil 27dekabr 158-son buyruqi'ga asosan kiritilgan).



Rasm 7.3

Doimiy signal fonarlariga ega bo'lmagan yuk vagoni ulangan yo'lovchi va pochta-bagaj poezdining oxiri kunduzi - **bufer brusi o'ng tomonda joylashgan qizil doiracha yoki yoyilgan qizil bayroqcha bilan**; tunda - **buferning o'ng tomonida fonarning qizil chirog'i** bilan belgilanadi (rasm 7.4, a).

Yuk poezdi oxiriga ulangan lokomotiv hamda vagonlarsiz harakatlanayotgan lokomotiv orqa tomondan kunduzi va tunda **bufer brusi o'ng tomondagi fonarning qizil chirog'i** bilan belgilanadi (rasm 7.4, b).




Rasm 7.4

85. Suruvchi lokomotiv va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi signallar bilan vagonlarsiz harakatlanayotgan lokomotiv kabi belgilanadi.

Suruvchi lokomotiv va xo'jalik poezdi ikki yo'lli peregondan teskari yo'l bo'ylab jo'natish stansiyasiga qaytayotganda teskari yo'l bo'ylab harakatlanish signallari bilan belgilanadi.

86. Peregonda yuk poezdining oxir qismi uzib qolinadigan hollarda jo'natish stansiyasida kunduzi - **bufer brusining o'ng tomonidagi yoyilgan sariq bayroqcha**; kechasi - **fonarning sariq chirog'i** bilan belgilanadi (rasm 7.5, a).

Poezdning uziluvchi qismi yuk poezdining oxiri kabi belgilanadi.




Rasm 7.5, a

87. Ko'p yo'lli uchastkalarda poezdlar, bir yo'lli va ikki yo'lli uchastkalardagi kabi, ko'p yo'lli uchastkaning u yoki bu yo'li bo'ylab qabul qilingan harakat tartibiga muvofiq ravishda belgilanadi.

88. Qor tozalagich bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanganda quyidagicha belgilanadi:

qor tozalagich bosh tomonda bo'lsa, kunduzi - **har chekkada yoyilgan ikki sariq bayroqcha**, kechasi - **har chekkada ikki fonarning sariq chiroqlari**, lokomotiv tomonga esa **ikki tiniq-oq rangli nazorat chirog'i** (rasm 7.5, b);




Rasm 7.5, b

lokomotiv bosh tomonda bo'lsa, kunduzi **bufer fonarlari yonida joylashtirilgan yoyilgan ikki sariq bayroqcha**; kechasi - **bufer fonarlarining ikki sariq chirog'i** (rasm 7.6, a).
Qor tozalagichning oxiri bir o'zi harakatlanayotgan lokomotiv kabi belgilanadi.

89. Qor tozalagichlar ikki yo'lli uchastkalarda teskari yo'l bo'ylab harakatlanayotganda kunduzi - **ikki chekkada joylashtirilgan ikki yoyilgan sariq bayroqchalar va chap tomon sariq bayroqchasining tagiga joylashtirilgan yoyilgan qizil bayroqcha**; kechasi - **mos ravishda fonarlarning ikki sariq va bir qizil chirog'i**, lokomotiv tomonga - **uchta tiniq-oq rangli nazorat chirog'i** (rasm 7.6, b).

Agar lokomotiv bosh tomonda bo'lsa, u qor tozalagich bosh tomonda harakatlangani kabi belgilanadi (rasm 7.6, b ga qaralsin).



Rasm 7.6

90. Manyovr harakatlarini olib borayotgan lokomotiv, shu jumladan u poezd tarkibidan hamda poezd tarkibiga qarab harakatlanayotganda, kechasi **old va orqa bufer bruslarida lokomotiv asosiy boshqaruv pulti tomondan bittadan tiniq-oq chiroq bo'lishi kerak.**

91. Yo'ldan olinuvchi turdagi drezinalar, yo'l vagonchalar va boshqa yo'ldan olinuvchi harakat birliklari peregonda quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda teskari yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi – **har ikkala tomondan qizil rangga bo'yalgan to'g'ri to'rtburchak taxtacha yoki uzun dastali yoyilgan qizil bayroq**; kechasi - **old va orqa tomondan uzun dastaga mahkamlangan qizil chiroqli fonar**;

ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi - **old tomoni oq va orqa tomoni qizil rangga bo'yalgan to'g'ri to'rtburchak taxtacha**; kechasi - **uzun dastaga mahkamlangan fonarlarning old tomondan tiniq-oq rangli va orqa tomondan qizil rangli chirog'i**.

Elektrlashtirilgan uchastkalarda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalari peregonda ishlaganda quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

bir yo'lli uchastkalarda va ikki yo'lli uchastkalarda teskari yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi - **har ikki tomondan yoyilgan qizil bayroq, kechasi - old va orqa tomonda fonarning qizil chirog'i**;

ikki yo'lli uchastkalarda to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanganda kunduzi - **poezdlar harakati yo'nalishi bo'yicha o'ng tomondan yoyilgan qizil bayroq**; kechasi - **old tomonda fonarning tiniq-oq chirog'i, orqa tomonda fonarning qizil chirog'i**.

Signallar barcha hollarda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamasining yerga tutash bog'ichi yuqori qismiga o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Peregondagi yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalari va yo'l vagonchalari, bulardan tashqari, har ikki tomondan olib qo'yiluvchi yoki yo'l qizil signallariga ega bo'lishlari va ular o'z navbatida ta'mirlash moslamasi va vagonlarning harakatlanishiga muvofiq ravishda peregondagi nishablik va mumkin bo'lgan maksimal tezlikka ko'ra jadval 3.1 ning 4 ustunida ko'rsatilgan B masofaga olib qo'yilishi kerak.

Stansiyada ishlaganda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamasi quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

kunduzi - har ikki tomonda yoyilgan qizil bayroq; kechasi - old va orqa tomonda fonarning qizil chirog'i;

yo'l vagonchasi: kunduzi har ikki tomoni qizil rangga bo'yalgan taxtacha yoki uzun dastali qizil bayroq; kechasi - old va orqa tomonda uzun dastaga o'rnatilgan qizil chiroqli fonar.

Yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamasi va yo'l vagonchasi stansiya yo'llari va strelkali o'tkazgichlar bo'ylab harakatlenganda, bundan tashqari, har ikki tomondan 50 m dan kam bo'lmagan masofada olib qo'yiluvchi yoki qo'l qizil signallari bilan to'silishi va ular o'z navbatida yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamasi va yo'l vagonchasi harakatiga muvofiq ravishda olib qo'yilishlari kerak.

Ishlarda qo'llaniluvchi turli yo'l aravachalari va boshqa yo'ldan olinuvchi harakat birliklarini har ikki tomondan to'sish DATK ning mos Yo'riqnomasida ko'zda tutilgan hollarda amalga oshiriladi.

Agar ikki yo'lli va ko'p yo'lli uchastkada qo'shni yo'ldan qarama-qarshi yo'nalishda poezd harakatlansa, u holda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamasi, yo'l vagonchasi yoki boshqa yo'ldan olinuvchi harakat birligini old tomondan to'suvchi qizil signal poezd o'tib ketguncha olib qo'yiladi.



Ikki tomonli avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'lli elektrlashtirilgan uchastkalarda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalarini faqat poezdlarning to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanish tomonidan to'silishi mumkin. Bunday uchastkalarda harakat xavfsizligini ta'minlagan holda yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalarining ishini tashkil qilish tartibi mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda DATK boshqaruvi raisi tomonidan DATK ko'rsatmalari asosida belgilanadi.











Yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalari, yo'l vagonchalari va boshqa yo'ldan olinuvchi harakat birliklarini to'suvchi temir yo'l xizmatchilari hamda yo'ldan olinuvchi birliklar harakatiga rahbarlik qiluvchi xodimlar olib qo'yiluvchi taxtachalardan tashqari, poezd yaqinlashishi xaqida hamda zarur hollarda poezdni to'xtatish signallarini uzatish uchun yo'l bayroqchalari va signal fonarlari, petardalar va hushtaklar bilan ta'minlanishi kerak.

8-bob

TOVUSHLI SIGNALLAR

92. Poezdlar harakatida tovushli signallar lokomotivlar, motorvagon poezdlar va maxsus o'ziyurar harakat tarkibi hushtaklari, damli naychalar, yo'l hushtaklari yordamida uzatiladi.

Signal	Signal mazmuni	Kim uzatadi
Uchta qisqa 	"To'xta!"	Lokomotiv brigadasi, bosh konduktor, stansiya xodimlari va boshqalar
Bitta uzun 	"Poezdning jo'natilishi"	Stansiya navbatchisi yoki uning topshirig'iga ko'ra park navbatchisi, signalchi, strelka posti navbatchisi yoki bosh konduktor; bosh lokomotiv mashinisti javob beradi; ikkilangan tortishda ikkinchi lokomotiv mashinisti signalni takrorlaydi. Agar poezd chiqish svetoforiga ega bo'lgan yo'ldan jo'natilsa, bu signalni bosh lokomotiv mashinisti chiqish svetofori ochilgandan so'ng uzatadi; ikkilangan tortishda ikkinchi lokomotiv mashinisti signalni takrorlaydi.

<p>Uchta uzun </p> <p>Ikkita uzun </p>	<p>Poezdga xizmat ko'rsa-tuvchi xodimlarga "Tormozla" talabi Poezdga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga "Tormozni bo'shat" talabi</p>	<p>Bosh lokomotiv mashinisti, ikkilangan tortishda ikkinchi lokomotiv mashinisti signalni takrorlaydi.</p>
<p>Uchta uzun va bitta qisqa </p>	<p>Poezdning stansiyaga to'liq bo'lmagan tarkibda kelishi xaqida</p>	<p>Bosh lokomotiv mashinisti</p>
<p>Uchta uzun va ikkita qisqa </p>	<p>Lokomotiv yoki mashinist yordamchisini, bosh konduktorni, yo'lovchi poezdi boshlig'ini (mexanik-brigadiri), xo'jalik poezdi ishlar rahbarini chaqirish</p>	<p>Peregonda to'xtagan poezd bosh lokomotiv mashinisti</p>
Ikkilangan tortishda harakatlanganda		
<p>Bitta qisqa  Ikkita qisqa  Ikkita uzun va ikkita qisqa </p>	<p>Ikkinchi lokomotiv mashinistiga tortishni kamaytirish xaqida talab Ikkinchi lokomotiv mashinistiga tortishni kuchaytirish xaqida talab Ikkinchi lokomotiv mashinistiga "Tok qabul qilgichni tushir" talabi</p>	<p>Bosh lokomotiv mashinisti; ikkinchi lokomotiv mashinisti signalni takrorlaydi</p>
Suruvchi lokomotiv bilan harakatlanish		
<p>Ikkita qisqa  Bitta qisqa, bitta uzun va bitta qisqa  To'rtta uzun </p>	<p>Turtkini boshlash xaqida talab Turtkini to'xtatish, lekin poezddan orqada qolmaslik xaqida talab Turtkini to'xtatish va orqaga qaytish xaqida talab</p>	<p>Bosh lokomotiv mashinisti, turtki lokomotivi mashinisti signalni takrorlaydi</p>
<p><i>Izoh.</i> Poezdning ikkilangan tortishda suruvchi lokomotivi bilan harakatlanganda ikkinchi lokomotiv mashinisti barcha signallarni suruvchi lokomotivdan so'ng takrorlaydi. Bu holda suruvchi lokomotiv mashinistining "Tok qabul qilgichni tushir" signalini uzatish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan o'rnatiladi. Radio aloqa mavjud hollarda poezdlarning ikkilangan tortishda yoki suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganida tovushli signallar mashinistlarning</p>		

93. Xabarlovchi signal - lokomotiv (motorvagon poezdi) ning, o'zi yurar maxsus harakat tarkibining bitta uzun hushtagi, teskari yo'l bo'ylab harakatlanganda - bitta uzun, qisqa va uzun hushtagi quyidagi hollarda uzatiladi:

- poezdning stansiyalarga, yo'l postlariga, yo'lovchi to'xtash punktlariga, tezlik kamaytirishlikni talab qiluvchi olib qo'yiluvchi yo'l signallariga, "S" signal belgisiga, yo'ning egri joylariga, tonnellarga, temir yo'l o'tish joylariga, yo'ldan olinuvchi drezinalar, ta'mirlash moslamalari, yo'l vagonchalariga va boshqa yo'ldan olinuvchi harakat birliklariga yaqinlashganida:

- poezdning ogohlantirishda ko'rsatilgan ish joylaridan avvalgi kilometrdan boshlab olib qo'yiluvchi signallar bor-yo'qligidan qat'iy nazar;

- signalchi uzatayotgan "Tok qabul qilgichni tushir" yo'l signali qabul qilinganda;

- yo'lda turgan odamlarga yaqinlashganda va DATK boshqaruvi raisi buyruqlarida ko'rsatilgan boshqa hollarda.

Poezdning tuman, qor bo'roni va ko'rinishni susaytiruvchi boshqa noqulay sharoitlarda harakatlanganida xabarlovchi signal bir necha marta takrorlanadi.

Poezd qabul qilinishi tufayli manyovrlarni poezd tuzuvchilar, signalchilar va strelka posti navbatchilari xabarlovchi signal bo'yicha o'z uchastkalarida qabul qilinuvchi poezd harakati xavfsizligi ta'minlanganligini tekshirish va unga ishonch hosil qilishi shart.

94. Hushyorlik signali lokomotiv (motorvagon poezd), maxsus o'zi yurar harakat tarkibining bitta qisqa va bitta uzun hushtagi orqali uzatiladi va dam-badam takrorlanadi:

- qizil chiroqli, shartli-ruxsat etuvchi signalli o'tish svetoforiga yaqinlashganda va keyinchalik blok-uchastka bo'ylab harakatlanganda;

- oq-oy chiroqli taklif etuvchi signalli kirish svetoforiga yaqinlashganda va poezdni stansiyaga kirish signalining taqiqlovchi ko'rsatkichida yoki asosiy chiroqlarining o'chiq holatida qabul qilinishining boshqa hollarida;

- poezdni teskari yo'l bo'ylab (bu yo'lda kirish signalining yo'qligida) qabul qilinishida. Bu signal poezdning stansiya bo'g'izi bo'ylab harakatlanishi mobaynida ham berilishi kerak.

95. Poezdlarning ikki yo'lli uchastkalarining peregonlarida uchrashganida bitta uzun hushtak orqali xabarlash signallari uzatiladi: birinchisi - qarama-qarshi poezdga yaqinlashganda, ikkinchisi - qarama-qarshi poezdning oxiriga yaqinlashganda.

96. Poezdning yaqinlashishi xaqida tovushli signallar quyidagilar tomonidan uzatiladi: peregonda - temir yo'llar va sun'iy inshootlar ko'ruvchilari, o'tish joylari navbatchilari, yo'l ishlari va kontakt tarmog'i bo'yicha ishlar rahbarlari, yo'ldan olinuvchi ta'mirlash moslamalari va yo'l vagonchalarini kuzatuvchi ishchilar; stansiyada - signalchilar va kirish strelka post navbatchilari. Toq yo'nalish poezdining yaqinlashishi xaqida xabar bitta, juft yo'nalish poezdining esa ikkita uzun tovushli signal orqali uzatiladi.

Signalchilar va kirish strelka postlari navbatchilari poezd jo'natilish signalini eshitgach, bitta uzun tovushli signal beradilar.

97. DATK boshqaruvi raisi belgilagan ro'yxat bo'yicha yirik shaharlar va aholi punktlari, nazorat joylarda joylashgan stansiyalar va peregonlarda lokomotivlar (motorvagon poezdlar), maxsus o'zi yurar harakat tarkibi tomonidan uzatiladigan tovushli signallar, lokomotivlarning poezdlarda turtki tartibida harakatlanganda, odamlar yoki to'siqlarni bosib ketish xavfi tug'ilganda hamda hushyorlik va xavf (trevoga) signallarini uzatish hollaridan tashqari vaziyatlarda past tovushda uzatilishi kerak.

Ushbu stansiyalarda poezdlarning jo'natilishida, avtotormozlarni sinashda va depo yo'llari bo'ylab harakatlanganda lokomotiv (motorvagon poezd), maxsus o'ziyurar harakat tarkibi

hushtagi orqali signallar uzatilmaydi. Bunday stansiyalarda yo'lovchilarni poezdlar jo'nash xaqida ogohlantirish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan o'rnatiladi.

9-BOB

XAVF SIGNALLARI VA MAXSUS KO'RSATKICHLAR

98. Xavf signallari lokomotivlar (motorvagon poezdlar) va maxsus o'zi yurar harakat tarkibining gudoklari, hushtaklari, sirenalar, damli naylar, harbiy signal trubalar, osilgan metall predmetlarga zarbalar orqali uzatiladi.

Tovushli signallar sxemasida belgilangan tovushlar zarbalar orqali quyidagicha uzatiladi:
uzun-tez-tez beriluvchi zarbalar;
qisqa - zarur bo'lgan qisqa tovushlar soniga mos bittalik zarbalar.

99. Umumiy xavf signali **bir uzun va uchta qisqa** tovushlar



guruhlarini orqali quyidagi hollarda uzatiladi:

- yo'lda harakat xavfsizligiga rahna soluvchi nosozliklar aniqlanganda;
- poezdning qor bosgan joyda to'xtaganida, halokatga uchraganida va yordam talab qiliniladigan boshqa vaziyatlarga tushganida.

Signal zarur hollarda temir yo'lining har bir xodimi tomonidan uzatiladi.

100. "Yong'in xavfi" signali bitta uzun va ikki qisqa tovushlar guruhlarini



orqali uzatiladi.

Signal zarur hollarda temir yo'lining har bir xodimi tomonidan uzatiladi.

101. "Havo xavfi" signali sirenalarning davomiy tovushi hamda 2-3 daqiqa mobaynida to'xtovsiz yangrovchi qisqa tovushlar orqali uzatiladi.



Shaharlarda joylashgan stansiyalar, zavodlar va DATK ning boshqa korxonalarida, vazirliklar va idoralarda sirenalar yoki radiotranslyatsiya tarmog'i orqali shaharda uzatilgan havo xavfi signali zudlik bilan sirenalar hamda lokomotivlar (motorvagon poezdlar) va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi hushtaklari va gudoklari orqali takrorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportining shaharlardan tashqarida joylashgan stansiyalari, zavodlari va boshqa korxonalarida havo xavfi signali o'sha vositalar orqali mos ravishda stansiya, zavod, korxonalar boshlig'i farmoyishiga ko'ra uzatiladi.

Peregonlarda havo xavfi signali lokomotivlar (motorvagon poezdlar) va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi hushtagi orqali:

- harbiy poezdlarda - tashilayotgan qism shaxsiy tarkibidan ajratilgan kuzatuvchining farmoyishiga ko'ra;
- boshqa poezdlarda - poezdni boshlovchi lokomotiv mashinisti tomonidan uzatiladi.

Temir yo'l radiotranslyatsiya tarmog'i mavjud hollarda (poezdlarda, stansiyalarda, zavodlarda va O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportining boshqa korxonalarida) havo xavfi signalini uzatish xaqida xabar shu tarmoq orqali ham uzatiladi.

102. "Radiatsiya xavfi" yoki "Kimyoviy xavfi" signali 2-3 daqiqa mobaynida quyidagicha uzatiladi:

- peregonlarda - bitta uzun va bitta qisqa tovushlar guruhi bo'yicha lokomotivlar (motorvagon poezdlar) va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi hushtaklari orqali;



- stansiyalar, zavodlar va O'zbekiston Respublikasining boshqa korxonalarida osilgan metall predmetlarga beriladigan tez-tez zarbalar orqali.

"Radiatsiya xavfi" yoki "Kimyoviy xavf" signali stansiyalar, zavodlar va O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportining boshqa korxonalarida mos ravishda stansiya, zavod, korxon boshlig'ining farmoyishiga ko'ra, peregonlarda esa - bosh lokomotiv (motorvagon poezd) va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi mashinisti tomonidan uzatiladi.

Temir yo'l radiotranslyatsiya tarmog'i mavjud hollarda radioaktiv yoki kimyoviy xavf xaqida xabar shu tarmoq orqali ko'rsatilgan signallar matni bilan uzatiladi.

103. Havo xavfi tugaganligi hamda radioaktiv va zaharlovchi moddalar bilan zararlanish xavfi chetlab o'tganligi xaqida temir yo'l xodimlari va yo'lovchilarga quyidagicha xabar beriladi:


- stansiyalar, zavodlar va O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportining boshqa korxonalarida mos ravishda stansiya, zavod, korxon boshlig'ining yoki u tomondan vakolat berilgan shaxsning ko'rsatmasi bo'yicha radiotranslyatsion tarmoq va boshqa aloqa vositalari hamda xabarchilar orqali;

- yo'lovchi poezdlarda - yo'lovchi poezdning boshlig'i (mexanik-brigadir) ko'rsatmasi bo'yicha poezdga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va poezd radiotranslyatsiya tarmog'i orqali;

- odamli va harbiy poezdlarda - stansiya navbatchisidan xabar olinganda eshelon boshlig'i ko'rsatmasi bo'yicha eshelon aloqa vositalari orqali;

- yuk-yo'lovchi, pochta-bagaj va yuk poezdlarda stansiya navbatchisi orqali.

104. Lokomotiv brigadalari va poezdga xizmat ko'rsatuvchi boshqa xizmatchilarni poezdning zaharlangan uchastka tomon harakatlanayotgani xaqida ogohlantirish hamda unga odamlarning shaxsiy himoya vositalarisiz kirishning oldini olish uchun bunday uchastka "Zaharlangan" maxsus ko'rsatkichi (rasm 9.1) bilan chegaralanadi.



Rasm 9.1

"Zaharlangan" ko'rsatkichlari stansiyalar va peregonlarda zararlangan uchastka chegarasidan 50 m dan ko'p bo'lmagan masofada o'rnatiladi. Bundan tashqari, peregonlarda zaharlangan uchastkaning har ikki tomonidan harakat yo'nalishining o'ng tomonidan birinchi "Zaharlangan" ko'rsatkichidan 1200 m masofada ikkinchi shunday ko'rsatkichlar o'rnatiladi. "Zaharlangan" ko'rsatkichlari yo'l chetida yoki yo'llar oralig'ida o'rnatiladi.

Poezd harakati bo'yicha birinchi "Zaharlangan" ko'rsatkichi oldidan yoki stansiya navbatchisidan olingan zaharlangan uchastka mavjudligi xaqidagi xabarga ko'ra ko'rsatgan joy oldidan (uchastka ko'rsatkichlar bilan chegaralangan yoki chegaralanmaganligidan qat'iy nazar) bosh lokomotiv mashinisti "Radiatsiya xavfi" yoki "Kimyoviy xavf" signalini uzatishi va zaharlangan uchaskani belgilangan tezlikda bosib o'tishi shart.

"Zaharlangan" ko'rsatkichlari tunda yoritilishi kerak.

105. Svetoforlar, fonarlar, strelka ko'rsatkichlari, poezd, yo'l va boshqa signallarning signal chiroqlari svetomaskirovka qurilmalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

MUNDARIJA

Umumiy qoidalar _____

1-BOB

SIGNALLAR _____

Ko'rinadigan signallar _____

Tovushli signallar _____

2-BOB

SVETOFORLAR _____

Kirish svetoforlari _____

Taklif qiluvchi signal _____

Chiqish svetoforlari _____

Marshrut svetoforlari _____

O'tish svetoforlari _____

Svetoforning shartli ruxsat beruvchi signali _____

Berkituvchi va to'sivchi svetoforlar _____

Ogohlantiruvchi va takrorlovchi svetoforlar _____

Lokomotiv svetoforlari _____

Amalda bo'lmagan svetoforlarni belgilash _____

3-BOB

TO'SISH SIGNALLARI _____

Tezlikni cheklovchi doimiy disklar _____

Ko'chiriladigan signallar _____

Poezdlar harakati uchun to'siq joylarni va ishlar olib borilayotgan joylarni peregonlarda to'sish _____

Poezdlar harakati uchun to'siq joylarni va ishlar olib borilayotgan joylarni stansiyalarda to'sish _____

Stansiya yo'llarida harakat tarkibini to'sish _____

Peregonda majburan to'xtagan poezdni to'sish _____

4-BOB

QO'L SIGNALLARI _____

5-BOB

SIGNAL KO'RSATKICHLARI VA BELGILARI _____

Marshrut ko'rsatkichlari _____

Strelka ko'rsatkichlari _____

Olib tashlash va yo'l cheklash qurilmalari ko'rsatkichlari _____

Gidravlik kolonkalar ko'rsatkichlari _____

Poezdlarda nosoz vagonlar mavjudligining ko'rsatkichlari _____

Blok-uchastkalar chegaralari ko'rsatkichlari _____
"Tok qabul qilgichni tushir" ko'rsatkichi _____
Doimiy signal belgilari _____
Muvaqqat signal belgilari _____

6-BOB

MANYOVR ISHLARIDA QO'LLANILADIGAN
SIGNALLAR _____

7-BOB

POEZDLAR, LOKOMOTIVLAR VA BOSHQA
HARAKAT BIRLIKLARINI BELGILASH UCHUN
QO'LLANILADIGAN SIGNALLAR _____

8-BOB

TOVUSHLI SIGNALLAR _____

9-BOB

XAVF SIGNALLARI VA
MAXSUS KO'RSATKICHLAR _____